Eshkak eshish ajoyib va zavqli faoliyat bo'lishi bilan bir qatorda qadimiy sport turlari qatoriga kiradi. Eshkak eshish turli yoshdagi erkak va ayollar uchun mos keladi. Eshkak eshishda jamoa bo'lib ikki, to'rt va sakkiz o'rinli qayiqlarda xamda yakka tartibda bir o'rinli qayiqlarda harakatlanish mumkin. Eshkak eshish shunday sport turlari qatoriga kiradiki yangi shug'ullanuvchi qisqa vaqt ichida yuqori toifadagi eshkakchi darajasiga ko'tarilishi mumkin. (2-rasm)

Eshkak eshishda tananing barcha qismlari harakatlanadi. Tashqaridan qaraganda eshkakchi tanasining faqat yuqori qismigina harakatlanishini ko'rish mumkin, biroq eshkak eshishga sarf etilayotgan kuchning ko'p qismi oyoqlar kuchiga to'g'ri keladi. Eshkak eshishda chog'ida tana mushaklarining ko'pchiligi jalb etiladi. Eshkak eshish sport turi shug'ullanuvchidan chidamkorlik, kuch, intizom va kuchli iroda kabi sifatlarni talab etadi.

Akadem eshkak eshishda barcha sportchilar (boshqaruvchi bundan mustasno) qayiq harakat yo'nalishiga teskari holda o'tiradilar, shuning uchun ularning yuzlari qayiqning burni emas balki orqa qismiga qaragan bo'ladi.

Akadem eshkak eshishning ikkita asosiy turi mavjud:

1. Toq eshkakli qayiqlarda eshkak eshish. Bunda har bir sportchi eshkakni ikkala qo'li bilan ushlaydi. Eshkaklar qayiqning chap va o'ng bortlariga assimetrik joylashgan bo'lganligi uchun qayiq mustaxkam qurilgan, shunga ko'ra juft eshkakli qayiqlarga nisbatan og'irroqdir. Toq eshkakli qayiqlar boshqarish uchun maxsus rulga egadir.

2. Juft eshkakli qayiqlarda eshkak eshish. Eshkakchi har bir qo'lida alohida eshkakni ushlaydi. Eshkaklar toq eshkakli qayiq-larnikiga nisbatan kaltaroq. Ko'pchilik juft eshkakli qayiqlarda rul bo'lmaydi, qayiq eshkaklar harakati xisobiga boshqariladi.



2-rasm. Eshkak eshish kanali

Eshkakchi eshkaklarni faqat qol kuchi yordamida harakatga keltirayotgandek ko'rinsada, aslida eshkaklarni harakatga keltiruvchi kuch eshkakchi o'tirgan o'rindiqning yo'lak bo'ylab burun tomon harakatlanishi evaziga paydo bo'ladi. Ish xajmining asosiy qismini *oyoqlar va yuqori bel* bajaradi. Tananing yuqori qismi beldan to elkagacha to'g'ri bo'lishi zarur, aks holda *eshkakchining jaroxat olishi muqarrar*.

Ushbu kitobda olingan bilimlar to'g'ridan to'g'ri qayiqqa o'tirib, malakali murabbiy qo'l ostida shug'ullanish jarayonida olingan ko'nikma va malakalarni o'rnini bosa olmaydi. Kitobni o'qish jarayonida ko'pgina sport klublar va tashkilotlar veb saytlariga ko'zingiz tushadi.

Ushbu kitob bir qancha mavzularni o'zida aks ettirgan bo'limlardan iborat.

I Bo'lim: Tarix

Bo'lim o'z ichiga eshkak eshishning qisqacha tarixi, yaniki eshkak eshish faoliyatining yuk tashish tizimidan to zamonaviy sport turiga aylanishini tasvirlab beradi.

II Bo'lim: Jixozlar

Bu bo'limda siz qayiq-lar, eshkaklar va eshkak eshishda qo'llaniladigan boshqa jixozlar haqida ma'lumotga ega bo'lasizlar.(3-rasm)

III Bo'lim: Qayiqni to'g'ri qo'llash.

Qayiqni to'g'ri qo'llanilishi va jixozlanishi haqida so'z boradi

IV Bo'lim: Toq eshkakli qayiq-larda eshkak eshish.

Toq eshkakli qayiq-larda eshkak eshish haqida to'liq ma'lumot xamda eshish harakati xususiyatlari

V Bo'lim: Juft eshkakli qayiq-larda eshkak eshish.

Juft eshkakli qayiqshkak eshish haqida to'liq ma'lumot

VI Bo'lim: Eshkak eshish fiziologiyasi.

Tananing kislorodni iste'mol qilishi va eshkak eshishga zarur bo'lgan energiyaga aylanishi haqida so'z boradi

VII Bo'lim: Mashg'ulotlar.



3-rasm. Baydarka qayiqlari

Mashg'ulotlar xamda eshish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar haqida so'z boradi

VIII Bo'lim: Boshqaruvchi.

Boshqaruvchining o'rni va ma'suliyati haqida so'z boradi va boshqaruvchi tomonidan qo'llaniladigan buyruqlar va jixozlar aytib o'tiladi.

IX Bo'lim: Poygalar va regattalar.

Turli xildagi poygalar va mashxur regattalar haqida ma'lumotlar berilgan

X Bo'lim: Klub va tashkilotlar.

Bo'limda ko'pgina klub va tashkilotlar ro'yxati keltirib o'tilgan

XI Bo'lim: Kelgusi mutaola uchun.

Eshkak eshish xususiyatlariga oid ko'pgina materiallar ro'yxati, veb saytlar keltirib o'tilgan¹.

Jismoniy tarbiya institutida eshkak eshish ixtisosligi kursining predmeti, mazmuni va vazifalari. O'qituvchi-murabbiylik kasbi har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarni, ma'naviy yetuklikni, bolalar va sportchilarga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatni talab qiladi. Har kuni sportchilarga o'zini bahshida qilish, ularni jismoniy tarbiya va sportga undash, shu yo'lda ularni birlashtirish va ularning qalbiga jismoniy tarbiya va sportning ma'naviy asoslarini joylashtirish murabbiyning asosiy vazifalaridir.

O'qituvchi-murabbiyning faoliyati – o'sib kelayotgan avlodni ichki dunyosiga yo'l topa olish qobiliyati bilan o'lchanadi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'sib kelayotgan bolani qalbini cho'ktirmaslik uchun iloji boricha o'zaro iliq munosabatni amalga oshirish kerak. Pedagogni bolalar bilan do'stona munosabati ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi. Ong - ong bilan tarbiyalanadi, vijdon – vijdon bilan, Vatanga bo'lgan sadoqat unga bo'lgan sodiqlik bilan o'lchanadi.

Fan o'qitilishi vazifalari:

- talabalarni jismoniy tarbiya tizimida eshkak eshish sportini jismoniy tarbiya vositasi sifatidagi bilimlar va eshkak eshish sporti turlari texnikasi hamda o'qitish uslublari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish;

- jismoniy tarbiyaning turli bo'limlarida ta'lim va boshlang'ich sport masg'uloti vazifalarini yechishga yordam beruvchi maxsus pedagogik bilimlarni shakllantirish;

- eshkak eshish bo'yicha ommaviy sport ishlarini tashkil qilish;

- talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, fikrlashni va bashorat qilishni tarbiyalash;

O'quv jarayoni – ma'ruza, seminar, amaliy va sport mahoratini oshirish mashg'ulotlaridan hamda o'quv amaliyoti va talabalarning mustaqil ishlaridan tarkib topgan.(4-rasm)

¹*An Introduction to Rowing Paperback, 2013, 1-3betlar.*



4-rasm. Start xolati va slalomda eshkak eshish

Ma`ruza mashg`ulotlarida eshkak eshish sportining rivojlanish tarixi, texnikasi, texnikaga o`rgatish uslubiyati, taktikasi, tayyorgarlik turlari, sport trenirovkasini rejalashtirish, sportchilarning boshlang`ich tayyorgarligi, sportchilarni saralab olish, ilmiy izlanish ishlarining uslublari, ko`p yillik tayyorgarlik bosqichlari, o`quv-trenirovka yig`inlari, musobaqalarni tashkil qilish, o`tkazish va hakamlik qilish bo`yicha umumiy ma`lumotlar beriladi.

Seminar mashg`ulotida talabalarga ma`ruza mashg`ulotida berilgan umumiy ma`lumotlar batafsil, atroflicha o`rganiladi va talabalarning mustaqil ishlari tekshirilib nazorat qilinadi. Seminar mashg`ulotlarining bir qismi nazorat ishlari va testlar qabul qilish uchun ajratilishi mumkin.

Amaliy mashg`ulotlarda talabalar eshkak eshish sporti texnikasi va taktikasini, trenirovka va ta`lim uslublarini o`rganadi va takomillashtiradi.

Talabalarning mustaqil ishlariga quyidagilar kiradi: adabiyotlar bilan ishlash, o`quv-trenirovka mashg`uloti konspektini tuzish, o`qituvchi ko`rsatmasi asosida rejalashtirish hujjatlarini tuzish, bitiruv malakaviy ishi (BMI) ning tanlangan mavzusi bo`yicha uslubiy ishlarni olib borish, pedagogik va tashkiliy-murabbiylik amaliyotiga tayyorlanish, alohida mavzular bo`yicha referatlar yozish, shaxsiy trenirovka kundaligini qayd qilish daftarini yurgazish va uni tahlil qilish, BMI ning tanlangan mavzusi bo`yicha ilmiy-izlanish ishlarini olib borish.

Talabalarning sport pedagogik mahoratini oshirish (SPMO) ta`lim jarayonining barcha davrlarida o`tkaziladigan fakultativ (qo`shimcha) mashg`ulotlarida amalga oshiriladi. Talabalar bu mashg`ulotlarda o`zining sport mahoratini takomillashtiradilar. Pedagog-murabbiyga, tashkilotchi va hakamga zarur bo`lgan barcha bilim va ko`nikmalarni egallaydilar.

Talabalarning tanlangan sport turi va boshqa sport turlaridan musobaqalarga qatnashishi o`quv ishlarining majburiy qismi sifatida qaraladi.(5-rasm)

Ixtisoslikdan o`quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida talabalar o`quv-trenirovka mashg`ulotini tashkil qilishni, qayiq va eshkaklarni mashg`ulotga va musobaqaga tayyorlashni, zarur bo`lsa ularni ta`mirlashni, o`quv-trenirovka va musobaqa distansiya (masofa) larini ishlab chiqish va o`rnatishni, mashg`ulot o`tkazish joyini aniqlashni amalda qo`llaydilar.



5-rasm. Slalom va ikki o'rinli kanoedaeshkak eshish

Eshkak eshish sportiga sport faoliyatining turi sifatida tavsif. Insonning istalgan harakat faoliyati uning tashqi muhitga o'zaro faol ta'siri natijasida amalga oshadi. Tashqi muhitni tashqi muhit va tabiiy tashqi muhitga ajratish qabul qilingan. Eshkak eshish sportida sun'iy (boshqariluvchi) tashqi muhit-bu qayiq, eshkak, eshkak eshish havzasining sharoitlari, tabiiy tashqi muhit esa – yer atmosferasi, yerning tortish kuchi, bundan tashqari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan suv muhitidir. Eshkak eshuvchining o'ziga xos harakat faoliyati bu uning ikki muhitda harakatlanishidir: havo muhiti va suv muhiti. Sportchi barcha mexanik ishlarni havo muhitida amalga oshiradi. Bu esa fiziologik jarayonlar – energiya ta'minoti, ternoregulyatsiya jarayonlarini o'tishini murakkablashtiradi. Eshkak orqali qayiqni harakatlantirish esa suv muhitida amalga oshadi. Bu eshkak eshish sportining o'ziga hos, takrorlanmas hususiyati hisoblanadi.

Qayiqda o'tirib, tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida eshkak eshuvchi qayiqni harakatlanishini ta'minlovchi harakatlar kompleksini bajaradi. Bu harakatlar yuqori koordinatsion murakkablik bilan xarakterlanadi. Eshkak eshish sportining har xil turlarida ko'zga tashlanadigan farqlariga qaramasdan eshkak eshuvchining asosiy harakat faoliyatini tashkil qiluvchi bir qancha umumiy qonuniyatlarga bo'lish mumkin.

Sikllilik – eshkak eshuvchi trenirovka va musobaqa faoliyatida ko'plab siklik harakatlarni bajaradi. Bu orqali harakatlarning yuqori avtomatlashgan darajasiga, sport texnikasining yuqori muqumliligiga, siklning barcha element va tarkibiy qismlarining hamohahg bajarilishiga erishiladi.

Harakatlarning uzluksiz ketma-ketligi – eshkak eshish sportining barcha turlari texnikasining muhim hususiyatidir. Qo'l va eshkak harakati ellipssimon traektoriyada, tana segment (qism) lari va eshkak harakat yo'nalishini almashtirib, to'xtovsiz bajarilishi lozim. Bu orqali harakatlarning o'zaro muvofiqligiga va mosligiga erishiladi.

Muskulni ketma-ket kuchlanishi va bo'shshishi siklik ishlarda yuqori ish qobiliyatini saqlashning muhim sharti hisoblanadi. To'g'ri, eshkak eshish sporti bilan shug'ullanishda barcha muskul guruhlari to'liq bo'shshmaydi, masalan, holatni saqlash va eshkakni ushlashni ta'minlovchi muskul guruhlari zo'riqishi qo'llab-quvvatlanadi.

Beqaror tayanchda dinamik muvozanatni saqlash – eshkak eshish sportida harakat faoliyatining o'ziga xos tarkibiy qismi hisoblanadi. Qayiqda muvozanatni saqlash holatni muntazam nazorat qilish va boshqarish hisobiga amalga oshiriladi. Texnik takomillashuv natijasida muvozanat saqlash ko'nikmasi avtomatlashadi, sportchi idroki texnikaning muhim tarkibiy qismlarini (temp, ritm, eshish amplitudasi, kuchlanish) nazorat qilishga, bundan tashqari, taktik vazifalarni yechishga qaratiladi. (6-rasm)



6-rasm. Eshkak eshish kanali

Eshkak eshish sportida xavfsizlik qoidalari. Eshkak eshuvchining asosiy faoliyati insonlar uchun nisbatan noodatiy sharoitda – suvda amalga oshadi. Qayiqni to'ntarilishi nafaqat yangi

shug'ullanishni boshlagan sportchilar balki, hamma shug'ullanuvchilarda ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Organizmning qattiq sovishi, tutqanoq, lat yeyish va shok shular jumlasidandir. Bular orasida hatto o'limga olib keluvchilari bor. Shuning uchun eshkak eshish sporti mashg'ulotlari va musobaqalari batafsil o'ylab chiqilgan xavfsizlik tizimi bilan ta'minlanishi zarur.

Suv sporti bazalarida qutqaruv xizmatini tashkil qilish baza rahbariyati zimmasiga yuklatiladi. Ular suvda xavfsizlikni ta'minlash tartibining aniq reglamentini tuzishga majburdirlar.

Suv sporti bazalari rahbariyati individual va guruhli qutqaruv vositalarining mavjudligini kuzatib borishlari shart.

O'quv-trenirovka jarayonida qutqaruv xizmati vazifasi bevosita murabbiy zimmasida bo'ladi. Shuning uchun murabbiy eshkak eshish sporti uchun xos bo'lgan xavflarni hisobga olishga va muntazam profilaktika ishlarini olib borishga majbur.(7-rasm)



7-rasm. Akadem eshkak eshish turlari

To'garakka saralash paytida murabbiy yangi shug'ullanuvchining suza olishini tekshirishi lozim. Suzishni bilmaydiganlarni eshkak eshish sporti bilan shug'ullanishiga ruxsat berilmaydi.

Dastlabki mashg'ulotlarni 1,5-2 metrdan chuqur bo'lmagan havzalarda o'tkazgan ma'qul. Har bir mashg'ulot oldidan murabbiy shaxsan, jihozlarning, qayiq va eshkakning, individual va guruhli himoya vositalarining yaroqliligini tekshirishi shart.

Slalomchilar uchun majburiy jihozlarga suv o'tkazmaydigan kostyum, kaska, 16 kg og'irlikni ko'taruvchi jilet kiradi. Tog' daryolarida 22-24 kg og'irlikni ko'taruvchi jilet dan foydalaniladi.

Nazorat savollari.

1. Mamlakatimizda eshkak eshish sportining qaysi turlari bilan shug'ullanishadi? Ularning umumiyligi, farqlarini va xususiyatlarini ayting.
2. Qanday eshkak eshish sporti turlarini bilasiz? Ularning qaysilari olimpiya va qaysilari noolimpiya turlari hisoblanadi?
3. Eshkak eshish sportining har xil turlarining farqlari, umumiyligi va o'ziga xosligini ayting.
4. Eshkak eshish sporti bilan shug'ullanishda qanday kasallik va jarohatlar yuzaga keladi? Ularning oldini olish yo'llarini ayting.

2-mavzu. Eshkak eshish tarixi

Reja

1. Qayiqlarda eshkak eshishning ilk xabrlari.
2. XVIII asrga kelib eshkak eshish bellashuvlarining hozirgi zamon ko'rishiga kelishi.
3. Eshkak eshish bo'yicha xalqaro federasiyalarning tashkil topishi.
4. Eshkak eshish qayiqlarining hozirgi kundagi o'lchamlari va musobaqa turlari.
5. Nazorat savollari.

Qayiqlarda musobaqalashuvning ilk xabarlari eramizdan avvalgi XV asrda Misrda devorga tushirilgan qayiq va eshkakchilar su'ratlari shaklida aniqlangan. (1-rasm)

Eramizdan avvalgi 866-565- yillarda eshkakchilar musobaqalari Panafina o'yinlari dasturiga kiritilgan.



1-rasm. Qayiqlarda musobaqalashuvning ilk xabarlari

Rimdagi Kolizey arenasining konstruksiyasi unga suv to'latish imkonini bergan va u yerda "naumahi" deb nomlanuvchi suvdagi janglar bo'lib o'tgan. Bu davr eramizdan avvalgi I asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi. (An introduction to rowing,4-5betlar)

Eshkak eshish bellashuvlari (hozirgi zamon tushunchasida) XVIII asrning boshlarida Angliyada keng yoyila boshladi. Bu vaqtga kelib London orolchalardan tashkil topgan va ko'priklar hali yo'q edi. Suvdan olib o'tish, xabarlashuvning yagona vositasi bo'lib xizmat qilar edi. Qayiqlar va tashuvchilar shayligini tekshirish maqsadida 1716-yildan boshlab har yili musobaqalar o'tkazish yo'lga qo'yildi.(2-rasm)



2-rasm. Yevropada eshkak eshishning rivojlanishi

1822-yilda 1-marotaba Oksford universiteti talabalari o'rtasida o'tkazilgan musobaqa, havaskorlar eshkak eshish sportining rivojlanishiga ilk qadamni qo'ydi.

1829-yilda Xenli shahrida Oksford va Kembridj universitetlari o'rtasida 8 o'rinli qayiqda 1-poyga bo'lib o'tdi. Har ikkala universitet talabalarni flot xizmatiga tayyorlanayotgan edilar. Keyinchalik bu poyga an'anaga aylandi va hozirgi paytgacha har yili aprel oxirida o'tkazib kelinadi.

1892-yilda akadem eshkak eshish bo'yicha xalqaro federatsiya tashkil etildi. Tashkil etuvchi mamlakatlar – Belgiya, Italiya, Fransiya, Shvesariya, Angliya va Germaniya uzoq vaqtgacha federatsiyaga a'zo bo'lishmagan. Hozirgi kunda FISA tarkibiga 60dan ortiq milliy federatsiyalar kiradi. Rasmiy til – fransuz tili. (3-rasm)



3-rasm. Qayiqning qadimgi ko'rinishi

FISA qaroriga ko'ra 1893-yildan boshlab akadem eshkak eshish bo'yicha Yevropa chempionatlari o'tkazila boshlandi. 1-jahon urishi vaqtida Yevropa chempionati o'tkazilmadi, faqatgina 1920-yildan qayta o'tkazila boshlandi. FISA akadem eshkak eshish bo'yicha jahon chempionatlarini 1962-yildan har 4 yilda 1 marotaba va 1974-yildan boshlab har yili o'tkazilishi haqida qaror qabul qildi. (4-rasm)

Akadem qayiqlarda eshkak eshish 1896-yil Afinada bo'lib o'tgan 1-Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan edi. Bellashuvlar Pireya bo'yidagi suv havzasida bo'lib o'tishi lozim edi, yomon ob-havo sharoiti tufayli musobaqalar qoldirildi. 2-Olimpiada Parijda bo'lib o'tdi, unda eshkakchilar 4 ta klass (1,2,4,8-o'rinli) qayiqlarda ishtirok etdilar².

Baydarkada eshkak eshish bo'yicha sport bellashuvlari XIX asrning 60-yillarida tan oлина boshladi.

1860-yilda Angliyada baydarkada eshkak eshish bo'yicha 1-havaskorlar klubi tashkil etildi.

Ko'pgina mamlakatlarda baydarka va kanoeda eshkak eshishning rivojlanishi 1924-yilda Xalqaro kanoede federatsiyasining tashkil etilishiga olib keldi. Federatsiyaning tashkil etilishida Avstriya, Shvetsiya, Germaniya va Daniyaning milliy federatsiyalari sababchi bo'ldilar.

1932-yildan boshlab IKF Yevropa chempionatlarini o'tkaza boshladi. 1936-yilda baydarka va kanoede eshkak eshish yozgi Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritildi.



²An Introduction to Rowing Paperback, 2013,4-7betlar

4-rasm. Xalqaro federasiyalar

Baydarka va kanoe so'zlarining lug'aviy ma'nosi. Kanoe Karib tillaridan o'zlashtirilgan so'z bo'lib ispan tilida "karnoa" – moki ma'nosini anglatadi. Daraxt tanasidan o'yilgan Shimoliy Amerika hindulari qayig'I hisoblangan. Hozirgi kunda kanoe sport qayiqlarining C-1, C-2, C-4 turlari mavjud.

Baydarka – shimolda yashovchi eskimoslar qayig'i hisoblangan, ikki eshish yuzasiga ega eshkak bilan eshiladi. Hozirgi kunda baydarka sport qayiqlarining K-1, K-2, K-4 turlari mavjud. Qadimda daraxtdan o'yib ishlangan, burun va korma qismi teri bilan yopilgan.



5-rasm. Qayiq turlari

Baydarka va kanoe qayiqlarining o'lchamlari

Qayiq turlari va ularning o'lchamlari.


- bir o'rinli baydarka (K1 maksimal uzunligi 520sm, minimal og'rlik 12kg)
- ikki o'rinli baydarka (K2 650sm, 18kg)
- to'rt o'rinli baydarka (K4 1100sm, 30kg)
- bir o'rinli kanoe (C1 520sm, 16kg)
- ikki o'rinli kanoe (C2 650sm, 20kg).
- to'rt o'rinli kanoe(C4 900sm, 30kg).(5,6,7-rasm)

Poyga masofalari

Jahon chempionati dasturiga kiritilgan masofalar: 200, 500, 1000, 10000.

Olimpiada dasturiga kiritilgan masifalar: 200,1000 – erkaklar

200, 500 – ayollar



INFUSION M



6-rasm. Baydarka qayig'i

Olimpiada dasturiga kiritilgan qayiq turlari:

Erkaklar

K1 – 200m
 K2 – 200m
 K1 – 1000m
 K2 – 1000m
 K4 – 1000m

Ayollar

K1 – 200m
 K1 – 500m
 K2 – 500m
 K4 – 500m

Poyga masofasi 9 yo'lakdan iborat, har bir yo'ak kengligi 9m, suv havzasi chuqurligi 2-3m.

Yosh kategoriyalari

1. O'smirlar (18 yoshgacha bo'lgan sportchilar)
2. Yoshlar (23 yoshgacha bo'lgan sportchilar)
3. Kattalar
4. Faxriylar (27 yoshdan kattalar)

Akadem qayiqlarining o'lchamlari


Qayiqning minimal og'irligi

Qayiqning shartli belgisi	Qayiq turi	Og'irligi (kg)
1. 1x	1 o'rinli	14
2. 2x	2 o'rinli juft eshkakli	27
3. 2-	2 o'rinli toq eshkakli (boshqaruvchisiz)	27
	2 o'rinli toq eshkakli (boshqaruvchi bilan)	
4. 2+	4 o'rinli juft eshkakli	32
	4 o'rinli toq eshkakli (boshqaruvchisiz)	
5. 4x	4 o'rinli toq eshkakli (boshqaruvchi bilan)	52
6. 4-	8 o'rinli	50
7. 4+		51
8. 8+		96



7-rasm. Kanoe qayiqdari

Qayiqdarning minimal og'irligini o'lchashda eshkaklar hisobga olinmaydi.



8-rasm. Eshkaklar

Qayiq uzunligi.

Maksimal uzunlik – jahon chempionati, Olimpiada va continental chempionatlarda 8 o'rinli qayiqdar poygasida qatnashuvchi barcha qayiqdar kamida 2ta yig'iluvchan seksiyadan iborat bo'lishi va har bir seksiya uzunligi 11,9m dan oshmasligi kerak.

Minimal uzunlik – qayiqning minimal uzunligi 7,20m ni tashkil etishi lozim.

Eshkak uzunligi.

Toq eshkakli qayiqdardagi eshkak uzunligi 385sm (erkak), 360sm (ayol). Juft eshkakli qayiqdardagi eshkak uzunligi 300sm (erkak), 295sm (ayol).(8,9-rasm)

Jahon chempionatida qatnashuvchi qayiq turlari.

Erkaklar (M) – 1x, 2x, 2-, 4x, 4-, 8+, 2+

Ayollar (W) – 1x, 2x, 2-, 4x, 4-, 8+

Erkaklar yengil vazn (LM) – 1x, 2x, 2-, 4x, 4-, 8+

Ayollar yengil vazn (LW) – 1x, 2x, 4x

Adaptiv eshkak eshish (A) – 1x, 2x, 4x

Olimpiada dasturidagi qayiqdar.

Erkaklar (M) – 1x, 2x, 2-, 4x, 4-, 8+

Ayollar (W) – 1x, 2x, 2-, 4x, 8+

Erkaklar yengil vazn (LM) – 2x, 4-

Ayollar yengil vazn (LW) – 2x



Poyga masofasi 6 yo'lakdan iborat bo'lishi lozim, har bir yo'lak kengligi 12,5-15m.



9-rasm. Eshkaklar

Yosh kategoriyalari

1. O'smirlar (18 yoshgacha bo'lgan sportchilar)
2. Yoshlar (23 yoshgacha bo'lgan sportchilar)
3. Kattalar
4. Faxriylar (27 yoshdan kattalar)



10-rasm. Akadem eshkak eshish qayiqdari

Qo'shimcha kategoriyalar.

Yosh kategoriyalariga qo'shimcha ravishda FISA kattlar va 23 yoshgacha bo'lgan sportchilar uchun yengil vazn va kattalar uchun adaptive eshkak eshish kategoriyalarini tan oladi.(10-rasm)

Yengil vazn kategoriyasida bir o'rinli qayiqda eshkak eshuvchi erkak sportchining vazni 72,5kg dan oshmasligi kerak. Ko'p o'rinli qayiq ekipaj a'zolarining o'rtacha og'irligi erkaklarda 70kg dan oshmasligi kerak.


Bir o'rinli qayiqda eshkak eshuvchi ayol sportchining vazni 59kg, ekipaj a'zolarining o'rtacha vazni 57kg dan oshmasligi lozim.



11-rasm. Baydarka qayig'iga misol

Boshqaruvchi.

Boshqaruvchining minimal vazni erkaklar uchun 55kg, ayollar uchun 50kg ni tashkil etadi.



12-rasm. Akadem qayig'ining moslamalari

Nazorat savollari

1. Eramizdan avvalgi nechanchi yillarda eshkakchilar musobaqalari Panafina o'yinlari dastueiga kiritilgan?
2. Nachanchi asrga kelib eshish bellashuvlari(hozirgi zamon tushunchasida) keng yoyila boshladi?
3. Angliyaning qaysi universitetlari o'rtasida hozirgi kunga qadar akadem eshkak eshish bo'yicha musobaqalar o'tkazib kelinadi?
4. FISA va ICF qachom tashkil topgan va ularning birinchi a'zolari qaysi mamlakat milliy federasiyalari bo'lgan?
5. Baydarka va kanoe sport qayiqalarining qanday turlari bor va ularning o'lchamlari?
6. Akadem qayiqalarining turlari va ularning o'lchamlari?

3-mavzu: Eshkak eshish texnikasi asoslari

Reja

1. Eshish texnikasining umumiy xarakteristikasi
2. Biomexanik eshish sistemasi.
3. Eshish texnikasini aniqlovchi omillar
4. **Eshish qayiqqlari harakatining gidrodinamik asoslari.**
5. Suvning fizik xossasi
6. Qayiq harakatiga gidrodinamik qarshilik
7. To'liq yuzaga kelishining xususiyatlari
8. Nazorat savollari.

Eshish texnikasining umumiy xarakteristikasi

Eshish texnikasi – bu qayiqni oldingi siljishi va tanlangan yo'nalishda ushlab qolishni ta'minlovchi eshakchining tashkillashtirilgan harakatlar yig'indisi deb aytish mumkin.

Eshish texnikasining shakli va tarkibi farqlanadi. Shakl tushunchasi – yo'nalish, traektoriya, alohida zvenolarning siljish amplitudasi, ularning turli holatlarida o'zaro joylashuvi kabi harakat ko'rsatkichlari va boshqa fazoviy tavsiflarni umumlashiradi. Texnika tarkibi deganda o'lcham va mushaklar kuchlanishining o'zaro muvofiqlashuvi, mushaklararo koordinatsiya, shuningdek mushaklar qisqarishi natijasida hosil bo'lgan kuchning eshak va qayiqqa ta'siri nazarda tutiladi. Texnika shakli va tarkibi uzviy aloqada va birlikda mavjuddir. Ayni mushak kuchlanishi natijasida eshakchining tana segmentlari va eshak harakatlanadi. O'z navbatida eshakning suvdagi harakati eshish yuzasini suvdagi tayanchini hosil qiladi, bu qayiqqa o'tadi va uni harakatlantiradi. Qayiq harakatlanishi suvning qarshilik kuchini oshiradi.




Figure 1: The principle of recovery

1-rasm. Biomexanik eshish tizimi

Biomexanik eshish sistemasi. Qayiqda o'tirgan inson "eshkakchi-eshak- qayiq" tiizimini tashkil etadi. Buni shuningdek biomexanik eshish tizimi (BET) deb ham atash mumkin. Bunda uning barcha komponentlari o'zaro va atrof bilan ta'sirda bo'ladi. Bundan kelib chiqib o'z ro ta'sir ichki va tashqi kuchlarga farqlanadi. (1-rasm)

Tashqi kuchlar BETga nisbatan ta'sir etadi va uning atrof bilan o'zaro ta'sirini namoyon etadi, bular: qayiq harakatiga nisbatan gidrodinamik qarshilik, qayiqning tortishish kuchi, eshish yuzasining suvga ta'sir kushi, BET inersiyasi va og'irlik kuchi, suvning itarib chiqarish kuchi va boshqalar.

Ichki kuchlar BETning alohida komponentlarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi, bular: eshak ushlagichiga ta'sir etuvchikuchlar, qayiqqa ta'sir etuvchi eshakchining inersiya va og'irlik kuchlari.



Eshish texnikasini aniqlovchi omillar

Sportchi eshakchining xarakteristikalarini biomexanika, anatomiya va psixologiya qonuniyatlariga muvofiq holda amalga oshadi. Qayiq va eshakning suvdagi harakati gidrodinamika qonuniyatlariga bo'y sunadi. (2-rasm)

Eshish qayiqqlari harakatining gidrodinamik asoslari.

Eshkakchi harakatlarini o'rganish va mukammallashtirishda biz beixtiyor suv muhiti va biomexanik eshish tizimlarini o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keluvchi jarayonlarga duch kelamiz.

Bu o'zaro ta'sir tahlili umumiy gidrodinamik qonunlariga asoslanadi:



2-rasm. Eshish texnikasini aniqlovchi omillar

Suvning fizik xossasi. Suvning va unga tushirilgan jismning xarakati birinchi navbatda uning fizik xossalari zichligi, yopishqoqligi va bosim ostida siqiluvchanligiga bo'g'liq.

Zichlik – suv massasini uning hajmiga nisbatiga teng. Zichlik ko'rsatgichi asosiy gidrodinamik formulalar qatoriga kiradi va ρ bilan belgilanadi:

$$\rho = \frac{M}{V} = \frac{kg}{m^3}$$

Bu yerda: M – suv massasi, V – hajm.

Yopishqoqlik – suv qatlamlari yoki qismlarining bir-biriga nisbatan harakatlanishida ichki ishqalanish hisobiga qarshilik ko'rsatish xususiyatidir.

$$\nu = \frac{\eta}{\rho} = \frac{kg \cdot c \cdot kg \cdot c}{m^2 \cdot m^2 \cdot c} = \frac{m^2}{c}$$

Siqiluvchanlik – jism siqilganda uning hajmi kichrayishi xususiyatidir.


Gidrostatikaning asosiy qonuniyatlari.

Butun jahon tortishish qonuniga muvofiq suyuqlikka tushirilgan jismga og'irlik kuchi ta'sir etadi. Arximed qonuniga ko'ra unga qarshi siqib chiqarilgan suyuqlik hajmining og'irligiga teng Q itarish kuchi ta'sir etadi.

Jismning suzuvchanlik xususiyati itaruvchi va og'irlik kuchining o'zaro nisbatiga bog'liq. Og'irlik kuchi ortgan hollarda jism salbiy suzuvchanlikka ega bo'ladi va suvga cho'ka boshlaydi. Ijobiy suzuvchanlik holatida jism suv yuzasida qoladi. Qayiqning suzuvchanlik zahirasi uning yuk og'irligi va hajmiga bog'liq. Ikkita bir xil qayiqning qaysi birida og'irroq sportchi bo'lsa, o'sha qayiqning suzuvchanligi kamroq bo'ladi.

Gidrostatik muvozanat Q va G kuchlar bir o'q bo'ylab ta'sir ko'rsatgandagina amalga oshadi. Chunki ikkala kuch vertical yo'nalgan.

Simmetriya o'qi bilan itaruvchi kuch yo'nalishining kesishuv nuqtasi metasentr deb nomlanadi. Qachonki metasentr sportchining umumiy og'irlik markazidan yuqorida bo'lsa, muvozanat turg'un bo'ladi, pastda joylashgan bo'lsa aksincha turg'un bo'lmaydi. (3-rasm)



3-rasm. Hidrodinamik qonuniyat

Qayiq harakatiga gidrodinamik qarshilik. Sport qayiqlarining harakatiga gidrodinamik qarshilik ta'sir etadi. Quyidagi tenglama uning umumiy ko'rinishini ochib beradi:

$$R_x = C S \rho \frac{v^2}{2}$$

Bu yerda: R_x – gidrodinamik qarshilik, kG yoki Nyuton

C – gidrodinamik qarshilik koeffitsiyenti

S – yuvilib turuvchi maydon yuzasi

v – oldin

gayo'nalغان

tezlik

ρ - suvning zichligi

To'liq qarshilik uning uchta komponenti yig'indisi sifatida taqdim etilishi mumkin:

$$R_x = R_i + R_b + R_t$$

Bu yerda:

R_i - ishqalanish qarshiligi.

R_b - bosim qarshiligi.

R_t - to'lqin qarshiligi.

Ishqalanish qarshiligining pasayishi qayiqning yuvilib turuvchi yuzasini kichrayishi va silliqiligi ta'minlanishi hisobiga amalga oshadi. Qayiqning konstruktiv xususiyatlari sabab, bosim qarshiligi uncha katta ahamiyat kasb etmaydi. Uchinchi komponent to'lqin hosil bo'lishi xususiyatlariga bog'liq.

To'lqin yuzaga kelishining xususiyatlari

Eshkak eshish qayiqlarining harakatlanishida ikki guruh to'lqinlari yuzaga keladi: burun va korma. Har bir guruh tarqaluvchi va ko'ndalang to'lqinlarni o'z ichiga oladi. (4-rasm)

Nisbatan kichik tezliklarga asosan tarqaluvchi to'lqinlar sabab bo'ladi. Tezlikning oshishi bilan ko'ndalang to'lqinlarning qayiq qarshiligiga qo'shgan hissasi ortib boradi.



4-rasm. To'lqinning yuzaga kelishi

Tarqaluvchi to'lqinlar energiyasi eshkak eshish sportida keng qo'llaniladi. Og'irlik markazi oldinda ketayotgan qayiqdan tarqaluvchi to'lqinlar o'rkachidan bir oz oldinda joylashgan qayiq qo'shimcha tortish quvvatiga ega bo'ladi. Baydarka va kanoeda 10000 m masofaga eshkak eshishdan lider to'lqinidan foydalanish poyga taktikasining ajralmas komponenti hisoblanadi.

Sayoz suv havzalarda to'lqin qarshiligi ortadi. Sayoz suvning ta'siri shunda namoyon bo'ladi, unda tarqaluvchi to'lqinning yo'qolish burchagi ortishni boshlaydi, kritik deb nomlanuvchi tezlikda tarqaluvchi to'lqinlar ko'ndalang to'lqinlar bilan qo'shilib aralash to'lqinlarni hosil qiladi. Bu to'lqin qayiq bilan bir xil tezlikda harakatlanadi va bu eshkakchini ortiqcha quvvatni sarf etishga majbur etadi. Kritik tezlik quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$v_{kr} = \sqrt{gh}$$

Bu yerda,

g – 9,8 m/s², h - havza chuqurligi, m.

Formula bo'yicha hisob shuni ko'rsatadiki, 1m, 2m va 3m chuqurlikda kritik tezlik mos ravishda 3.1, 4.4 va 5,4 m/s tashkil etadi. Qayiq kritik tezlikdan oshishi bilanoq (buning uchun

tezlanish chog'ida kuchlanishni birmuncha oshirish lozim) u aralash to'lgindan ajraladi va qayiqqa faqatgina burun qismidagi tarqaluvchi to'lgin ta'sir etib turadi, qayiq qarshiligi pasayadi va yuqoriroq tezlikni ushlab turish uchun eshkakchidan nisbatan kamroq quvvat talab etiladi.

Nazorat savollari.

1. Eshkak eshish texnikasining shakli va tarkibi nimalardan iborat?
2. BET ga ta'sir etuvchi qanday tashqi va ichki kuchlar mavjud?
3. Eshish qayiqqlari harakatining gidrodinamik asoslari nimalar bilan bog'liq?
4. Suvning zichligi, yopishqoqligi va siqiluvchanligiga ta'rif bering?
5. Hidroststikaning asosiy qonuniyatlari nimalardan iborat?
6. Qayiq harakatiga qanday gidrodinamik qarshiliklar ko'rsatiladi?
7. To'lgin yuzaga kelishining sabablari?

4-mavzu: Mahkamlovchi moslamasiz qayiqlarda eshkak eshish texnikasi.

Reja

I. Baydarkada eshkak eshish texnikasi.

- I. 1 Eshkakchining qayiqdagi dastlabki holati.
- I.2 Harakat sikli va uni tashkil qiluvchi qismlar.
- I.3 Umumiy harakat sxemasi.
- I.4 Harakatning fazoviy, vaqt va dinamik tavsifnomasi.
- I.5 Jamoaviy eshkak eshish.
- I.6 Start olish va finish texnikaei.

II. Kanoeda eshkak eshish texnikasi.

- II.1 Ishlash holatining tavsifi.
- II.2 Harakat sikli va uni tashkil qiluvchi qismlar.
- II.3 Silkinish texnikasi.
- II.4 Buriqish texnikasi.
- II.5 Harakatning fazoviy va vaqt tavsifnomasi.
- II.6 Start olish va finish texnikaei.
- II.7 Nazorat savollari.

I. Baydarkada eshkak eshish texnikasi.

Eshkakchining qayiqdagi dastlabki holati. Eshkakchining qayiqqa o'tirish varianti birinchi navbatda sportchining tana holatiga qarab aniqlanadi. Eshkakchi tanasi to'g'ri yoki oldinga biroz egilgan holda bo'lishi mumkin. To'g'ri o'tirish tananing aylanish amplitudasi yuqori bo'lishin ta'minlaydi. Oldinga biroz egilib o'tirish tananing aylanish imkoniyatini biroz kamaytiradi. Oyoqlar bukilgan, son va bolder orasidagi burchak $130 - 150^{\circ}$. Eshkakni yelka sigmentlari va yelka uzunligi yig'indisi kengligida yoki undan 5-6 sm qisqaroq ushlab tavsia etiladi.



1-rasm. Baydarkada eshkak eshish texnikasi

Harakat sikli va uni tashkil qiluvchi qismlar. Baydarkada eshkak eshishda to'liq harakat sikli ikkita tayanch va ikkita tayanchsiz davrlarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida tayanch davri shartli ravishda fazalarga bo'linadi. Quyidagi bo'linish mezonlari mavjud:

- suvni ushlab (eshish yuzasining suvga tegish vaqtidan to'liq suvga botguniga qadar);
- olib o'tish;


- suvdan olish (eshish yuzasining suvdan ko'tarilish paytidan to to'liq chiqquniga qadar).



2-rasm. Baydarkada eshkak eshish texnikasi

Umumiy harakat sxemasi. Baydarkada eshkak eshish texnikasining turli-tumanligiga qaramay ularning asosiysi an'anaviy va siltanish texnikasi bo'lib hisoblanadi. Ular orasidagi farq quyidagi jadvalda keltirilgan(1,2,3,4,5-rasm)

Tavsifnoma	Texnika varianti	
	An'anaviy	Siltanish
O'tirish	To'g'ri yoki oldinga biroz egilgan holda	To'g'ri
Eshkakni ushlash	Standart yoki biroz kaltaroq	Standart
Tana harakati	Tana burilishi o'rtacha, yuqori qo'lni itarish chog'ida tana oldinga egilishi mumkin	Kuchli burilish - yuqori amplitude bilan (100° gacha)
Itaruvchi qo'l harakati	Yuqori - bosh bilan barobar, bo'ylama yo'nalgan (qayiqning harakatlanish o'qiga deyarli parallel)	Past – bosh balandligidan asta sekin yelka va ko'krakkacha tushib boradi, dugasimon harakatlanadi. Kaft qayiqning diametric yuzacini kesib o'tib deyarli qarama-qarshi bortgacha boradi
Tortuvchi qo'l harakati	Eshish yuzasining suvga kirishi bilan tirsak qismida bukiladi, bortga nisbatan parallel harakatlanadi	Eshish yarmigacha deyarli bukilmaydi, dugasimon harakatlanadi
Eshish yuzasining suvdagi harakati	Bo'ylama yo'nalgan yon tomonga siljishi – minimal. Suvga bo'yinchadan pastroq kiradi	Yonga sezilarli darajada siljiydi
Qayiqning harakatlanishi	Kursning tebranishi minimal	Tebranishi mumkin



3-rasm. Baydarkada eshkak eshish texnikasi

Start olish texnikasi. Eshkakchining start oldi holati dastlabki holat bilan unchalik ham mos kelmaydi, eshish yuzasi suvga tegar tegmas yoki qisman botirilgan holatda bo'ladi. Start olish texnikasi 3ta asosiy tarkibiy qismga ega: start reaksiyasi, boshlang'ich tezlik olish, taktik tezlanish.



4-rasm. Ekipajda eshish texnikasi

Eshkakchining startdagi murakkab harakat reaksiyasi o'z ichiga sensor fazasi – start signali vaqtidan to birinchi harakatgacha va motor fazasi – eshkakchining boshlang'ich harakatidan to qayiqning oldinga siljishigacha bo'lgan davrni oladi.

Boshlang'ich tezlikni olish qayiqning startdan chiqish vaqtidan to eshkakchining maksimal temp va tezlikka erishgunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yuqori malakali eshkakchilarda maksimal tempga 10-14m larda erishiladi.



5-rasm. Baydarkada eshkak eshish texnikasi

Sart jarayonida eshkakchi maksimal temp va tezlikka erishishi, uni qayd etishi va masofali eshkak eshish rejimiga o'tishiga tayyorgarlik ko'rishi lozim. Bularga taxminan 15s, 65-75m ketishi lozim.

Taktik tezlanish – boshlang'ich tezlik olish yakunidan boshlanib o'rtacha masofaviy tezlikka erishish vaqtigacha davom etadi. Bundan asosiy maqsad – liderlik holatiga chiqib olish. Start bo'lagining maksimal uzunligi 120-150m dan oshmasligi lozim. Negaki, bu vaqtning ichida sut kislotasining miqdori keskin ortishi mumkin. Bu esa ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.



6-rasm. Start va finish xolatlari

Finish tezlanishi raqiblarga sezilmagan holda boshlanadi, bir necha eshish harakatlaridan so'ng temp minutiga 6-10 eshish harakatigacha ortadi. Bu paytda tayyorgarlik davri vaqti va eshish yuzasi amplitudasi biroz qisqaradi, eshish yuzasiga berilayotgan kuchlanish miqdori o'zgarmaydi. (6-rasm)

II. Kanoeda eshkak eshish texnikasi.

Ishlash holatining tavsifi. Eshkakchining asosiy va dastlabki holati deyarli bir-biriga mos keladi (uning start oldi holatidan tashqari), bu holatda eshkakni suvdan olish birmuncha qulay. Ushbu holatda eshkakchi tana og'irligining asosiy qismi tushadigan tayanch oyoq'ining tizzasi bilan yostiqchaga turib oladi. Tayanch oyoqning son qismi vertical holatda, panja oyoq tirgagichga taqalgan. Oldinda turuvchi yo'naltiruvchi oyoq tizza bo'g'imida 100-120gr oralig'ida bukilgan. Yo'naltiruvchi oyoq panjasi qayiqning uzun o'qiga 20-30gr burchak ostida qo'yilgan. Bu holat eng yaxshi tayanch va balansni ta'minlaydi, eshkakchining og'irlik markazi tomonlarga siljigan taqdirda ham u muvozanatni qayta tiklashi mumkin. Eshkakni ushlash kengligi baydarkada eshishdagidek aniqlanadi. Eshkakning uzunligi odatda eshkakchining bo'yidan 3-5sm kaltaroq bo'ladi.



7-rasm. Kanoeda eshkak eshish texnikasi

Dastlabki holatda eshkakchining tanasi vertical, ko'kragi qayiqning uzun o'qiga perpendikulyar yoki ichki bort tomon biroz burilgan, yelkalar tushirilgan va bo'shashgan, pastki qo'l tushirilgan. Eshkakning eshish yuzasi suvga, uning sterjni yo'naltiruvchi oyoqqa tegar-tegmas holatda, eshkakchining boshi ko'tarilgan, nigohi to'g'riga qaratilgan.



8-rasm. Kanoeda eshkak eshish texnikasi

Harakat sikli va uni tashkil qiluvchi qismlar. Kanoeda eshkak eshishda harakat sikli tayanch va tayyorgarlik davrlarini o'z ichiga oladi, tayanch davri o'z navbatida quyidagi fazalarga bo'linadi:

- eshkakning eshish yuzasi bilan suvni ushlash (0,05-0,12s)
- suvda olib o'tish (0,35-0,45s)

- suvdan olish (0,12-0,22s)

Eshish yuzasining suvdagi harakati quyidagilarga ajratiladi: ushlab (eshish yuzasining yo'nalishi to'g'riga-pastga-tashqariga), tortish (orqaga-pastga-ichkariga), itarilish (orqaga-tepaga) va suvdan olish (to'g'riga-tepaga-tashqariga).

Silkinish texnikasi. Eshishda bu texnikaning ajralib turuvchi tarafi yelka kamari va tananing silkinishi evaziga yuzaga keluvchi inertsiya kuchlardan foydalanishdadir. Eshish yuzasini suvga tegish vaqtida tananing uzun o'qi gorizontal bilan 35-45gr burchakni tashkil etadi. Yuqori qo'l tirsak qismida 120-150gr burchak ostida bukilgan. Eshkak ushlagichi boshdan balandda, pastki qo'l sal kam to'g'ri va to'g'riga-pastga va biroz tashqariga cho'zilgan.



9-rasm. Kanoeda eshkak eshish texnikasi

Eshish boshida qo'l va undan biroz oldin bukilgan tana harakati hisobiga eshkak suvga botiriladi. Natijada qayiqni tezlatuvchi tayanch va tananing yuqori qismidagi og'irlik kuchini muvozanatlovchi vertical kuchlar yuzaga keladi, eshkak suvga 50-60gr burchak ostida kiradi.

Tananing silkinishi natijasida yuzaga keluvchi inertsiya kuchi eshkakning eshish yuzasiga o'tadi. Tananing maksimal bukilishi eshish yuzasini suvga to'liq kirishini ta'minlaydi. Yo'naltiruvchi oyoqqa bosim ortadi va bu sezilarli darajada bo'lishi kerak emas.

Keyinchalik tana rostlana boshlaydi, tananing rostlanishi tayanch davrining oxiri va eshkakni suvdan olish fazasi o'rtalarigacha, qachonki eshkakchi eng yuqori holatni olmaguncha davom etadi. Eshish harakati tananing rostlanishi, tortuvchi qo'lning biroz orqaga siljishi va yuqori qo'lning to'liq rostlanishi bilan yakunlanadi. Yuqori qo'l asosan tayanch funksiyasini bajaradi.



10-rasm. Kanoeda eshkak eshish texnikasi

Eshkak suvdan pastki qo'l harakati va unga sinxron ravishda yelka kamari va tananing tashqi bortga burilishi evaziga olinadi. Bunda eshish yuzasi aylana duga bo'ylab tepaga-tashqariga-oldinga harakatlanadi.

Tayyorgarlik davrida eshkakni suvga botirish oldidan toz oldinga harakatlanadi, biroq eng oldingi nuqtaga yetmaydi, eshish yuzasini suvga botishi bilan bir vaqtda toz eng oldingi nuqtaga o'tadi. Sonning old yuzasidagi muskullar maksimal taranglashadi.

Burilish texnikasi. Bu texnikaning ajralib turuvchi tarafi eshishda tana va yelka kamarining o'z o'qi atrofida aylanishi hisobiga yuzaga keluvchi inertsiya kuchiga tayanishdir.



11-rasm. Kanoeda eshkak eshish texnikasi

Eshkakning suvga tegishi vaqtigacha eshkakchining yelka kamari tashqi bort tomonga maksimal buriladi. Tananing bukilishi me'yorda, tepa qo'l tirsak qismida anchagina bukilgan va eshkak ushlagichini quloq yoki undan balandroqda tutib turadi, pastki qo'l to'g'riga-pastga cho'zilgan. Eshish harakati yelka kamarining ichki bort tomonga burilishi, tepa qo'l va tananing rostlana borishi, pastki qo'lning pastga-orqaga tortilishi bilan boshlanadi. Tepa qo'l eshkakka uning o'qi bo'ylab bosim o'tkazmaydi, natijada u ushlagichni oldinga siljitadi. Ushlagichning oldinga siljishi eshkakning suvdagi tayanchini oshiradi, biroq bunda eshkak vertikal holatini tez yo'qotadi, natijada eshish uzunligi qisqaradi. Shuning uchun ushlagichni nisbatan bir tekis va oxiriga borib tezlanish bilan siljitish lozim va bu pastki qo'l tortishiga mutanosib bo'lishi kerak. Tortish yelka kamari va tananing o'z o'qi atrofida aylanishi, eshkakning suvga botishi bilan tananing rostlanishi, qo'lning yelka qismida rostlanishi eshishning yakunlovchi qismida pastki qo'lning tirsak qismida bukilishi evaziga amalga oshadi. Pastki qo'lning tirsak qismida bukilishi eshkakni suvdan olishda eshish yuzasining tashqariga harakatini ta'minlaydi.



12-rasm. Kanoeda eshkak eshish texnikasi

Burilish texnikasida eshkakning suvga botish chuqurligi silkinish texnikasidagiga nisbatan kamroq, tortuvchi qo'l esa suv sathidan balandroqda. Og'irlik markazining siljishi va kil chayqalishi xavfi kamroq, qisqargan amplituda qayiqni bir maromda borishiga va tempni oshirishga imkon beradi.

Tashqi alomatlar	Texnika variantlari	
	Silkinish	Burilish
Eshish yuzasining suvga tegish vaqtida tananig bukilishi.	Sezilarli 45-55gr gacha.	O'rtacha 30-40gr gacha.
Eshish yuzasining suvga tegish vaqtida yelka kamarining tashqi bort tomon burilishi.	2. O'rtachadan sezilarligacha.	2. Sezilarlidan maksimalgacha.
Eshish yuzasining suvga tegish vaqtida yuqori qo'ning holati.	3. Boshdan balandroq.	3. Bosh balandligida.
Eshish yuzasining suvga tegish vaqtida yuqori qo'ning tirsak qismida bukilishi.	4. O'rtacha.	4. Sezilarli.
Eshish harakatining o'rtalarida tortuvchi qo'ning holati.	5. Bevosita bort yuqorisida.	5. Bortdan 10-15sm yuqorida.
Eshish yuzasining suvga botish chuqurligi.	6. Nisbatan katta.	6. Nisbatan kichik.
Yuqori qo'l harakatida itarish komponentining aks etishi.	7. O'rtacha.	7. Sezilarli.
Eshish yakunidagi tortuvchi qo'ning so'nggi holati.	8. Tayanch oyoqning old yuzasi balandligida.	8. Tayanch oyoqning orqa yuzasi balandligida.
Eshish amplitudasi.	9. Birmuncha uzun.	9. Birmuncha kalta.
Masofadagi temp.	10. Nisbatan siyrak.	10. Nisbatan tez-tez.
Qayiq chayqalishi.	11. Sezilarlidan o'rtachagacha.	11. O'rtachadan minimumgacha.

Harakatning fazoviy va vaqt tavsifi. Eshish yuzasi geometrik markazining amplitudasi tayanch dvrida birmuncha variativ va u texnika variant va eshkakchining jismoniy ko'rsatkichiga qarab 2,4 va 2,7m oralig'ida bo'ladi.

Minutiga 60 eshish harakati tempida sikl vaqti 1s ga teng, bunda tayanch va tayyorgarlik davrlari vaqti nisbati 1:0,60-0,65s, tayanch davri vaqti 0,6s ni tashkil etadi.



13-rasm. Kanoeda eshkak eshish texnikasi

1 o'rinli kanoeda maksimal temp minutiga 70 eshish harakatidan oshishi mumkin, 2 o'rinli kanoeda esa minutiga 80 eshish harakati. Masofadagi temp minutiga 10-15 eshish harakati pastroq. Uzun masofalarga eshishda minutiga 50 eshish harakatigacha pasayadi. (7,8,9,10,11,12,13-rasm)

Start va finish texnikasi. 1 o'rinli kanoeda start oldin eshkakchi qayiqni ichki bort tarafga masofa yo'nalishiga nisbatan 20-30gr burchak ostida joylashtiradu. Sababi, bir necha kuchli eshish harakatlari evaziga qayiq boshqaruviga kuch sarflamay uni kurs bo'ylab olib chiqish. Start vaqtida maksimal kuchlanish 30kg dan ortadi. Bu vaqtdan tortuvchi qo'lga tushayotgan yuklama 60kg dan ortiqroqni tashkil etadi, bunda mexanik quvvat 40kg m/s va oshiqroq, masofada esa 30kg m/s va kamroq.

Nazorat savollari.

1. Baydarkada eshkak eshuvchining tanasi qanday holatlarda bo'lishi mumkin va ularning ijobiy va salbiy tomonlari.
2. Harakat sikli qanday davrlarni o'z ichiga oladi?
3. Tayanch davri qanday fazalarga bo'linadi?
4. "Suvni ushlab", "olib o'tish" va "suvdan olish" da eshkakchining harakati?
5. Eshkak eshish tempi va ritmi?
6. Start olish texnikasi o'z ichiga nimalarni oladi?
7. Kanoeda eshkak eshishda burilish va silkinish texnikalarining o'zaro farqi nimada?
8. Jamoaviy eshkak eshishning yakka o'rindiqli qayiqalarda eshkak eshishdan farqi?


5-mavzu: Mahkamlovchi moslamali qayqlarda eshkak eshish texnikasi.

Reja

1. Eshkakchining asosiy va dastlabki holati
2. Harakat sikli va uni tashkil qiluvchi qismlar.
3. Eshish fazalari.
4. Harakatning kuch va vaqt tavsifnomasi.
5. Start olish va finish texnikasi.
6. Nazorat savollari.

Toq eshkakli qayqlarda eshkak eshish

Bunda har bir sportchi eshkakni ikkala qo'li bilan ushlaydi. Eshkaklar qayiqning chap va o'ng bortlariga assimetrik joylashgan bo'lganligi uchun qayiq mustaxkam qurilgan, shunga ko'ra juft eshkakli qayqlarga nisbatan og'irroqdir. Toq eshkakli qayiqlar boshqarish uchun maxsus rulga egadir. Sakkiz o'rinli qayiqning barchasi boshqaruvchi bilan harakatlanadi. To'rt va ikki o'rinli qayiqning boshqaruvchi va boshqaruvchisiz xillari mavjud. Toq eshkakli qayiqlar eshkakchilar soni va boshqaruvchining bor yo'qligi qarab farqlanadi. Quyida toq eshkakli qayiqning bir qancha turlari keltirilgan:



1-rasm. Juft eshkakli qayiqda eshkak eshish texnikasi

1. Sakkiz o'rinli(8+). Bu qayiq sakkiz o'rinli bo'lib xamisha boshqaruvchi bilan harakatlanadi.(1-rasm) Uning uzunligi 60 fut bo'lib, og'irligi 200 paund.
2. To'rt o'rinli boshqaruvchi (4+) va boshqaruvchisiz(4-). Bu qayiqlarda to'rt eshkakchi harakatlanadi. To'rt o'rinli boshqaruvchisiz qayiq ko'p hollarda to'rt o'rinli deb ham aytiladi va yengil vazn kategoriyasiga mansub ekipajlar tomonidan qo'llaniladi. Boshqaruvchiga ega to'rt o'rinli qayiqlar maktab va klub jamoalari tomonidan qo'llaniladi. Boshqaruvchiga ega to'rt o'rinli qayiq 45 fut, boshqaruvchisi bo'lmagani esa 44 fut. Har ikkala qayiq 110 paund og'irlikka ega.

3. Ikki o'rinli boshqaruvchi(2+) va boshqaruvchisiz(2-) qayiq. Ikki o'rinli boshqaruvchisiz qayiq ko'p hollarda ikki o'rinli deb ham nomlanadi. Boshqaruvchiga ega qayiq 35 fut, boshqaruvchiga ega bo'lmagan qayiq 34 fut uzunlikda bo'ladi. Har ikkala qayiq og'irligi 58 pound.



2-rasm. Juft eshkakli qayiqlarda eshkak eshish texnikasi

Juft eshkakli qayiq

Eshkakchi har bir qo'lida alohida eshkakni ushlaydi. Eshkaklar toq eshkakli qayiq larnikiga nisbatan kaltaroq. Ko'pchilik juft eshkakli qayiqlarda rul bo'lmaydi, qayiq eshkaklar harakati xisobiga boshqariladi. Quyida juft eshkakli qayiq turlari keltirib o'tilgan:

1. To'rt o'rinli(4x). Qayiqda to'rt eshkakchi harakatlanadi. *Qayiqning uzunligi 42 fut, og'irligi esa 110 pound.*
2. Ikki o'rinli(2x). Qayiqda ikki eshkakchi harakatlanadi. Qayiq uzunligi 34 fut, og'irligi 58 pound
3. Bir o'rinli(1x). Qayiqda yagona eshkakchi harakatlanadi. Qayiqning uzunligi 27 fut, og'irligi 30 pound.(2,3-rasm)



3-3-

rasm. Juft eshkakli qayiqlarda eshkak eshish texnikasi

O'rindiqlar

Qayiq harakatlanuvchi o'rindiqqa ega bo'lib, o'rindiq to'rtta g'ildirakka biriktirilib, ular o'z o'rnida qayiqqa maxkamlangan y'lakda harakatlanadilar.(4-rasm)

O'rindiqlarning raqamlanishi

O'rindiqlar qayiq burnidan to korma tomon birdan to sakkizgacha raqamlanadi.



4-rasm. O'rindiqlarning ko'rinishi

Eshkaklar

Eshkak yog'och yoki karbon tolasidan yasaladi Eshkak quyidagi qismlardan iborat: *eshish yuzasi, eshkak o'qi va ushlagich*. Hozirgi kunda 1992 yilda Piter va Dik Drissigaker tomonidan kashf etilgan bolta shaklidagi eshish yuzasiga ega eshkaklar keng qo'llanilmoqda. Assimetrik bolta shaklidagi eshish yuzasiga ega eshkaklar 1959yildan beri qo'llanilib kelingan *Makon(Lola shakliga ega) eshkaklaridan ustunroq ekanligi aniqlandi. Bolta shaklidagi eshkaklar Makon eshkaklariga nisbatan kaltaroq bo'lsada, eshish yuzalari biroz kattaroq. Toq eshkakli qayiqlarda eshkak eshishda foydalaniladigan eshkaklar uzunligi 3,7m ga teng, juft eshkakli qayiqlardagi eshkaklar esa 2,8m ni tashkil etadi.(5-rasm)*



5-rasm. Eshkaklar

Mahkamlovchi moslama


Maxkamlovchi moslamalar qayiqning chap va o'ng bortlariga o'rnatiladi. Maxkamlovchi *moslama quyidagi qismlardan iborat: rom va eshkak uchun quliflardan iborat. Maxkamlovchi moslamaning romlari qayiq bortlariga boltlar tordamida qotiriladi. Bir qancha turdagi maxkamlovchi moslamalar mavjud.*

- uch tomonlama maxkamlovchi moslama
- ikki tomonlama maxkamlovchi moslama
- Qanot shaklidagi maxkamlovchi moslama

Ekipaj a'zolari maxkamlovchi moslamani qotirilishi uchun ma'suldirlar. Moslama qayiqqa AQSHda 7/16 inch uzunlikdagi, Yevropada 11mm uzunlikdagi boltlar bilan qotiriladi.

Moslamaning joylashuvi

Maxkamlovchi moslamalarning joylashuvi kop hollarda standart bo'lib, ikkala bordagi moslamalar tandem joylashadilar, bunday joylashuvning ikki turi mavjud bo'lib, ular nemischa va italyanacha joylashuvlardir.(6,8-rasm)



6-rasm. Eshish texnikasi

Oyoq tirgagich

Oyoq tirgagichga eshkakchining oyoq kiyimi maxkamlanadi. Oyoq kiyimning balandligi va joylashuv burchagini o'zgartirish mumkin. Oyoq tirgagichning balandligi o'rindiqning eng pastki nuqtasidan oyoq tovonining eng pastki nuqtasigacha bo'lgan vertical masofadir. Oyoq tirgagich shunday balandlikda bo'lishi kerakki, suvni ushlash chog'ida qo'llar qular harakatlana olishi kerak. Balandlik o'rtacha 14-20 sm bo'ladi. Oyoq tirgagich burchagi deganda gorizontaal bilan oyoq qo'yilgan yuza orasidagi burchakka aytiladi. Burchak shunday bo'lishi kerakki tizzalarning bukilib yozilishida eshkakchi qiyinchilikka duch kelmasligi lozim.

Boshqarish ruli

Boshqarish ruli qayiqning orqa qismida joylashgan bo'lib, boshqaruvchi tomonidan boshqariladi va u kilga ulangan bo'lib, maxsus trosalar bilan boshqariladi. Boshqaruvchisiz qayiqalarda rul eshkakchilardan birontasining oyoq tirgagichiga o'rnatiladi. Bu oyoqlar bilan boshqarish deyiladi.

Eshkak eshish trenajarlari

Eshkak eshish trenajarlari ergometrlar deb ham ataladi. Trenajer yo'lakda harakatlanuvchi o'rindiq, yuklama barabani, tablo va ushlagichlardan iborat. Eshkakchi bu trenajerda eshish texnikasini yaxshilashda, chidamkorlikni oshirishda, kilo kaloriyalarni sarf etishda foydalanishi mumkin. Uning qulayliklari eshkakchi xona sharoitida maxsus mashlarni va yuklamalarni bajara oladi. Trenajer tablosida eshkakchi o'zining bir qancha parametrlarini nazorat qilib borishi mumkin, misol uchun yurak urishi, eshish tempi, eshish tezligi va yuklama xajmi.(7-rasm)



7-rasm. 4o'rinli juft eshkakli qayiq

Qayiq bilan muomala qilish

Asosiy holatdan eshkakchi bankaga, o'z og'irligini qayiq kiliga simmetrik joylashtirgan holda o'tiradi. Tana va qo'l mushaklari bo'shashgan. Oyoqlar tizza qismida bir qancha bukilgan, eshkaklar ushlagichlari oyoq balandligida, ularning eshish yuzalari suvga gorizontal holda tushirilgan. Juft eshkakli qayiqlarda katta barmoq ushlagich uchida, chap kaft o'ng kaft ustida va biroz oldinroqda joylashadi. Ushlagichlar bir-biriga 10-12sm kirib turadi. Toq eshkakli qayiqda eshkak ikki qo'llab ushlanadi. Bunda maxkamlovchi moslamadan uzoqroqda joylashgan (tashqi)qo'lning jimjilog'i ushlagich uchi bilan bir chiziqda, maxkamlovchi moslamaga yaqin (ichki) qo'l tashqi qo'ldan 1,5-2 kaft oralig'ida joylashgan.

Dastlabki holatda eshkakchi eshish harakatini bajarishi uchun eshish yuzalarini suvga nisbatan perpendikulyar burgan bo'ladi.

Qayiqni olib yurish

Sakkiz o'rinli qayiqning og'irligi 200 paund atrofida bo'ladi, shuning uchun qayiqni yakka holda eshkakchilar ko'tara olmaydilar. Boshqaruvchi bunday vaziyatda barcha ekipaj azolarining mavjudligini nazorat qilishi va qayiqning korma qismida turib ekipaj azolariga qayiqni ko'tarish tog'risida buyruq berishi lozim. Boshqaruvchi qayiqni ellingdan to suv xavzasiga olib borilguncha kuzatib borishi va qayiqqa shikast yetmasligini nazorat qilishi shart. Bu jarayon quyidagi tartibda bajariladi:

1. Har bir ekipaj azosi o'z o'rindig'I yonida turishi lozim.
2. Boshqaruvchining "qo'llar" degan buyrig'idan so'ng eshkakchilar qayiqning ularga nisbatan qarama qarshi bortni ushlagan holda kutib turishlari lozim.
3. Qachonki boshqaruvchi "olishga tayorlaning" deganida eshkakchilar qayiqni maxsus joydan olib, elling markaziga oladilar.
4. Boshqaruvchining "yelkaga olinsin" buyrug'idan so'ng eshkakchilar qayiqni yelkaga olib ellingdan olib chiqadilar.



8-rasm. Maxkamlovchi moslama

Toq eshkakli qayiqlarda eshkak eshish texnikasi

Toq eshkakli qayiqlarda eshkak eshishda eshkakchilar o'zlarining joylashuvlariga ega bo'ladilar, ba'zi eshkakchilar faqat o'ng bortda eshsa boshqalari chap bortda eshadilar. *Yangi kelgan shug'ullanuvchilarga ikkala tomonda eshish tavsiya etiladi.* (An Introduction to rowing10-29betlar)




9-rasm Toq eshkakli qayiqda harakatlanish

Eshkakchining asosiy va dastlabki holati. Asosiy holatdan eshkakchi bankaga, o'z og'irligini qayiq kiliga simmetrik joylashtirgan holda o'tiradi. Tana va qo'l mushaklari bo'shashgan. Oyoqlar tizza qismida bir qancha bukilgan, eshkaklar ushlagichlari oyoq balandligida, ularning eshish yuzalari suvga gorizontal holda tushirilgan. *Juft eshkakli qayiqlarda katta barmoq ushlagich uchida, chap kaft o'ng kaft ustida va biroz oldinroqda joylashadi. Ushlagichlar bir-biriga 10-12sm kirib turadi. Toq eshkakli qayiqda eshkak ikki qo'llab ushlanadi. Bunda maxkamlovchi moslamadan uzoqroqda joylashgan (tashqi)qo'lning jimjilog'i ushlagich uchi bilan bir chiziqda, maxkamlovchi moslamaga yaqin (ichki) qo'l tashqi qo'ldan 1,5-2 kaft oralig'ida joylashgan.*(9-rasm)

Dastlabki holatda eshkakchi eshish harakatini bajarishi uchun eshish yuzalarini suvga nisbatan perpendikulyar burgan bo'ladi.

Harakat sikli va uni tashkil qiluvchi qismlar. Eshish sikli ikki – tayanch va tayyorgarlik davrlaridan iborat. Davrlar o'z navbatida 4ta fazaga bo'linadi: suvni ushlash, suvda olib o'tish, suvdan olish va tayyorgarlik.

Eshkak harakatlanishini tashqaridan kuzatish jarayonida fazalar vaqtini aniqlash mumkin. Bunda eshish boshlanishi – eshkakning suvga tegish paytidan, uning suvga to'liq botgungacha bo'lgan vaqt (0,3-0,4s). suvda olib o'tish – eshish yuzasining suvda bo'lgan vaqti (0,6-0,85s). Eshish yakuni – eshish yuzasini suvdan olish vaqti (0,09-0,12s). Keyingi eshish harakatiga tayyorgarlik – eshish yuzasining havoda bo'lgan vaqti (0,8-1,2s).



Toq va juft eshkakli qayiqlarda eshish harakati boshida tananing oldinga bukilishi perpendikulyarga nisbatan o'rtacha 30gr ga teng. Eshkakchi tanasining orqaga, qayiqning burun qismiga og'ishi juft eshkakli qayiqlarda 30gr ga, toq eshkakli qayiqlarda 20gr ga teng. Shunda tananing borib kelish amplitudasi 50-60gr ni tashkil etadi. (10-rasm)



10-rasm. Eshkakni ushlash texnikasi

Eshkak ushlagichning harakat amplitudasi toq eshkakli qayiqlarda 145-160sm ayollarda, erkaklarda 160-170sm, juft eshkakli qayiqlarda mos ravishda 135-145sm va 145-155sm ga teng.

Eshish harakatiga tayyorgarlik. Asosiy holatdan eshkakchi bankada oyoqlarining tizza qismida bukilishi hisobiga qayiqning karma qismi tomon yo'naladi va bir vaqtning o'zida tananing tos-son qismida, qo'llarning tirsak qismida bukilishi evaziga eshkak ushlagichini karma tomon harakatlantiradi.

Eshkakchi ushlagichni barmoq falangalari bilan kaftiga siqmaganda ushlaydi. (11-rasm)



11-rasm. 8 o'rinli qayiqda harakatlanish

Eshkakchining bankadagi tana og'irligi oyoq tirgagich tomon katta bo'lmagan *tezlanish bilan harakatlanadi. Toq eshkakli qayiqda yo'lak oxiriga kelib tashqi oyoq tizzasi tashqi qo'l orqasidan, ichki oyoq tizzasi qo'llar oralig'ida joylashadi. Juft eshkakli qayiqalarda oyoq tizzalari juftlashmagan va eshish harakati oldidan biroz tomonlarga ochilgan. Yo'lak yakunida banka old tirgagichga urilishi kerak emas. Yo'lakda siljish harakati uning to'liq uzunligi bo'ylab bajarilishi shart. Tayyorgarlik davrining so'ngiga kelib eshish yuzasi suv sathiga nisbatan perpendikulyar holatga buriladi.*

Suvni ushlab. Eshkakchi qo'llarining *tirsak va bilak qismlaridagi harakatlari bilan ushlagich harakat yo'nalishini aylana bo'ylab qayiqning karma qismidan uning burni tomon almastiradi. Eshish yuzasining suvga maksimal yaqinlashuvi va uning suvga tegishi bilan bir vaqtda eshkakchining oyoqlari, uning tizza qismida, tanasi – tos-son qismida, qo'llar esa tirsak qismida rostlanishni boshlaydi. Bunda oyoqlarning tirgagichga taqalishidan vujudga kelgan tayanch kuchi eshish yuzasiga o'tadi.*

Suvda olib o'tish. Sportchining eshkakni suvda olib o'tish vaqtida *bajargan barcha harakatlaridan maqsad, qayiqqa maksimal tezlanish berishdir. Bu esa eshish yuzasining suvdagi tayanch kuchi hisobiga ta'minlanadi.*

Suvni ushlab vaqtida eshish yuzasi suvda tayanchga ega bo'lgach, eshkakchi *tezlik bilan oyoqlarini tizza qismida, tanasini tos-son qismida rostlay boshlaydi va qo'l tirsaklarini belning orqasiga o'tkazadi.*

Eshish yuzasining tayanch kuchi doimo saqlanib qolishi uchun qo'l va tana harakati *boshidan oxirigacha o'sib boruvchi tezlik bilan bajarilishi lozim.*

Suvdan olish. Eshish oxiriga kelib eshkakchining tana og'irligi qayiqning burni tomon *anchagina katta tezlik bilan harakatlanadi. Shuning uchun eshkakchining asosiy maqsadi qisqa vaqt ichida o'z tana og'irligi yo'nalishini to'xtatish va qarama qarshi tomonga yo'naltirishdan iborat. Bu esa eshish yuzasining suvdagi tayanch kuchidan foydalanish evaziga amalga oshiriladi. (12-rasm)*



12-rasm. Toq eshkakli qayiqda eshkak eshish

Eshkakchining tana og'irligi yo'nalishi to'liq o'zgarmaguncha, eshish yuzasining suvdagi tayanchi ushlab turiladi. Eshkak ushlagichi o'zining gorizontal yo'nalish harakatini saqlab qoladi. Eshkakchi tanasi tos-son qismida rostlanishda davom etadi. Qo'llar, aniqrog'i tirsaklar va yelka bel orqasiga o'tadi. Bevosita ushlagich gorizontal harakatdan duga bo'ylab harakatga o'tish oldidan eshkakchining dumba muskullari bo'shashishi lozim, bunda tana tormozlanib boradi. Kaftlar harakati evaziga ushlagich yarim aylana shaklini oladi. Eshkakchi ushlagichni kaftiga siqmagan holda barmoqlar yordamida tepadan pastga bosadi. Eshish yuzasi suvdan tezlik bilan chiqadi va faqatgina shundan so'ng eshkakchi eshkak harakatini to'xtatmagan holda ichki qo'l barmoqlari yordamida eshish yuzasini gorizontal holatga buradi.

Harakatning kuch va vaqt tavsifnomasi. Eshish tempi bir o'rinli qayiqalarda ko'p o'rinli qayiqalarda nisbatan kamroq. Bir o'rinli qayiqda eshish tempi minutiga 30 eshish harakati atrofida, ikki o'rinlida 34-36 va ko'p o'rinli qayiqalarda minutiga 40-44 eshish harakatiga yetadi.

Tempning oshishi bilan eshkak ushlagichiga tushayotgan kuchlanish ham ortib boradi. Toq eshkakli qayiqalarda bu kuchlanish 60-90kg, juft eshkakli qayiqalarda 30-60kg ni tashkil etadi. Kuchlanish ayollarda erkaklarga nisbatan o'rtacha 20-15% kamroq.

Yuqori malakali sportchilarning har xil klassdagi qayiqalarda eshkak eshishda tayanch va tayyorgarlik davrlari vaqti nisbati.

Qayiq turi	Tayyorgarlik davri	Tayanch davri
A – 1	1,10	0,85
A – 2 juft	1,16	0,80
A – 2 toq	1,04	0,75
A – 4 juft	1,10	0,60
A – 4 toq	1,10	0,70

Start olish va finish texnikasi. Start olish texnikasi – start reaksiyasi, boshlang'ich tezlik va taktik tezlanishni o'z ichiga oladi.

Start reaksiyasi sportchining startdan chiqishida eng muhim sanaluvchi birinchi eshish harakatiga ta'sir ko'rsatadi. (13-rasm)



13-rasm. Qayiqda harakatlanishning yuqoridan ko'rinishi

Ikkinchi eshish harakatiga kelib sikl vaqti birinchisiga (1,4s) taqqoslaganda 1s gacha qisqaradi. Oltinchisiga kelib u 1,47s ga yetadi, start tezlanishi yakuniga kelib 1,43s gacha pasayadi va nisbatan turg'un ishlash rejimiga o'tish kuzatiladi.

Birinchi eshish harakati yo'lakning $\frac{3}{4}$ qismiga to'g'ri keladi, qolgan barcha eshish harakatlari bir biridan sportchilarning yo'lakda siljish uzunligiga qarab farqlanadi. Tananing orqa-oldiga harakati chegaralangan. Sakkizinchi eshish harakatiga kelib yo'lakning butun uzunligi bo'yicha siljish bajariladi. Start paytida eshish tempi minutiga 60-45 eshish harakatiga yetadi.

Finish – bu qayiqqa qo'shimcha tezlik berishga yo'naltirilgan harakatlar majmuidir. Finish tezlanishida eshish yuzasining vertikal holatidagi harakat amplitudasi kamayadi. Tananing oldinga-orqaga harakati ham nisbatan qisqaradi, oyoq va qo'llar kuchliroq ishlashni boshlaydi³.

Nazorat savollari.


1. Bir va juft eshkakli qayiqlarda eshkakchining asosiy holati va ularning farqi?
2. Harakat sikli qanday davrlarni o'z ichiga oladi?
3. Tayanch davri qanday fazalarga bo'linadi?
4. “Suvni ushlab”, “olib o'tish” va “suvdan olish”da eshkakchining harakati?
5. Eshkak eshish tempi va ritmi?
6. Start olish texnikasi o'z ichiga nimalarni oladi?
7. Nazorat savollari.

³*An Introduction to Rowing Paperback, 2013, 40-54betlar*

6-mavzu: Suv slalomida eshkak eshish texnikasi.

Reja

1. Suv slalomida eshkak eshishda asosiy texnik usullar.
2. Darvozalardan o'tish texnikasi.
3. To'lqinli suvlarda suv slalomi elementlarini bajarish texnikasi.
4. Juft o'rindiqli qayiqlarda eshkak eshish texnikasi.
5. Nazorat savollari.



1-rasm. Slalom qayig'ining ko'rinishi

Suv slalomi texnikasi quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi: eshish texnikasining o'zi, darvozalardan o'tish texnikasi, to'lqinli suvlarda suv slalomi elementlarini bajarish texnikasi va juvtlikda eshish texnikasi xususiyatlari.

Baydarkaning ikki tur qayiqlarida eshkakchining qayiqdagi dastlabki holati bir xildir. Slalomdagi kanoeda sportchi bir oyog'iga tayanib, tayanch oyoq tizzasi va boshqaruvchi oyoq tovoni taxminan yelka kengligida ochilgan holda qayiqda joylashadi.(1-rasm)



2-rasm. Slalomda eshish texnikasi

Suv slalomida sportchi va qayiq yahlit tizimni tashkil qiladi. Bu esa oyoqlar uchun asosiy tayanch tizimi va son-boldir qismlari uchun yon tayanchlar hisobiga amalga oshadi.(2-rasm)

Poyga qayiqlari bilan taqqoslaganda slalom qayiqlarida eshkak eshish texnikasining asosiy xususiyati uning boshqaruvidadir. Boshqaruv esa qayiqning yonga og'ishi, yoy shaklidagi eshish harakatlari, yonlama tortish va qayiqni burib eshish hisobiga amalga oshiriladi.

Qayiqning yonga og'ishi qayiq boshqaruvini tashkil qiluvchi muhim omildir. Qachonki qayiqning yonga og'ishi murakkab texnik elementning

tashkil qiluvchi qismi bo'lsa yoki qayiqni keskin burish lozim bo'lganda eshkak eshuvchining og'irlik markazi qayiqning og'ish tomoniga siljiydi, bunda eshkakning tayanch funksiyasi ortib boradi.


Suv oqimini kesib o'tishda qayiq oqim yo'nalishi tomonga og'adi va tubini oqimga tutib beradi. Bunda oqim qayiqni bukadi va suv sathida ushlab qoladi. Suvning oqimi qanchalik tez bo'lsa, qayiqning yonga og'ishi shunchalik ko'p bo'ladi.(3-rasm)



3-rasm. Darvozalardan o'tish texnikasi

Yoysimon eshish harakatining to'rtta turi farqlanadi:

1. Yo'nalish bo'ylab old itaruvchi;
2. Yo'nalishga qarshi old itaruvchi;
3. Yo'nalish bo'ylab orqa itaruvchi;
4. Yo'nalishga qarshi orqa itaruvchi.(4-rasm)



4-rasm. Murakkab texnik elementlar

Yo'nalish bo'ylab old itaruvchi eshish harakatlaridan qayiq kursini to'g'irlashda foydalaniladi.

Yo'nalishga qarshi old itaruvchi eshish harakatlaridan qayiq orqaga harakatlanayotganda yo'nalishni 90° burchakka o'zgartirishda foydalaniladi.

Yo'nalish bo'ylab orqa itaruvchi eshish harakatlaridan qayiq orqaga harakatlanayotganda uning yo'nalishini to'g'irlashda yoki o'zgartirishda foydalaniladi.

Yo'nalishga qarshi orqa itaruvchi eshish harakatlaridan qayiq oldinga harakatlanayotganda yo'nalishni 90° burchakdan ortiqroqqa o'zgartirishda foydalaniladi.

Suv slalomida eshkak eshishda bir qancha usullar mavjud, ulardan quyidagi asosiy variantlarni ajratish mumkin:

1. Old tortuvchi;
2. Orqa tortuvchi;
3. Parallal tortuvchi.

Old tortuvchi eshish harakati qatiq oldinga harakatlanayotgan qayiq yo'nalishini oldinga-yonga o'zgartiradi.

Orqa tortuvchi eshish harakati qayiqning asos qismi bilan oldinga harakatlanishida va bir vaqtning o'zida qayiqning eshish yuzasi tomon sezilarsiz siljishida qo'llaniladi.(5-rasm)



5-rasm. Murakkab teznik elementlarni bajarish

Parallel tortish – qayiqni kuchli yonlama siljitish usullaridan biridir.

Qayiq boshqaruvi tizimidagi eng muhim va majburiy element bu – “eskimoscha” aylanish hisoblanadi.

Eskimoscha aylanishni bajarish usullaridan biri “yarim vint” usuli bo'lib, bunda eshkakchi-baydarkachi suvga ag'darilgan holatda qayiq tumshuq qismidan asos tomon kuchli yoysimon eshish harakatini amalga oshiradi. Eshish harakati evaziga yuzaga kelgan kuch eshkak eshuvchiga suv sathiga yaqinlashtiradi. So'ngra qayiqni eshish yuzasiga parallel tortish va bir vaqtning o'zida sonlarning tomonlarga keskin silkinishi yordamida eshish yuzasi hosil qilgan tayanch hisobiga qatq me'yoriy holatga keladi.

Darvozalardan o'tish texnikasi slalom qayiqlarida eshkak eshish texnikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va u tana va eshkak bilan texnikasi hamda qayiq boshqaruvini o'z ichiga oladi.

Darvozalardan o'tishda eshkak bilan ishlash texnikasi deganda darvozalardan o'tish paytida eshish harakatini darvoza ustunlariga tegmay bajarish malakasi tushuniladi.

Tana bilan ishlash texnikasi asosida ham sportchining darvozalardan o'tishda ustunlarga tegmasdan harakatlanish xususiyati yotadi.

Darvozalardan o'tishda qayiqni boshqarish texnikasi deganda qayiqni yon tomonga og'ish harakatlarini bajara olish malakasi, darvozalardan o'tishda ustunlarga tegmaslik maqsadida qayiqning tumshuq va asos qismlarini tortish harakatlarini bajara olish malakasi tushuniladi.(6-rasm)



6-rasm. Slalom trassalari

To'liqinli suvlarda suv slalomi elementlarini bajarish texnikasi to'liqinli suv bo'ylab tushish, traverslarni bajarish, o'rama va vallardan o'tishni o'z ichiga boladi.

Travers – bu tezkor suv oqimini kesib o'tishda foydalaniluvchi asosiy usul hisoblanadi va u tezkor oqimni kesib o'tishda oqim yo'nalishiga nisbatan o'tkir burchak ostida qayiqning oqim tomonga og'ishi bilan amalga oshiriladi. Suv oqimining tezligi qanchalik kuchli bo'lsa, oqim yo'nalishi bilan qayiqning uzun o'qi orasidagi burchak shunchalik kichik bo'ladi va qayiqning oqim tomon yonga og'ishi shunchalik katta bo'ladi.

Slalomda asosiy qiyinchiliklarga sportchi gorizontol o'rama va vallarni kesib o'tishda duch keladi. Val – bu asosiy oqim yo'nalishiga qarshi yo'nalgan to'liqinlardir. Val tezkor oquvchi suv sokin suvga to'qnashga joylarda hosil bo'ladi. Buni asosan qoyatosh bo'laklari ortida kuzatish mumkin.(7-rasm)



7-rasm. Vallardan o'tish texnikasi

Vallarni kesib o'tishning eng oson yo'li ularni qayiq aylanish o'qiga to'g'ri burchak ostida o'tish hisoblanadi. Ketma-ket keluvchi vallarni maksimal tezlik bilan kesib o'tish talab qilinadi.

Juft o'rindiqli qayiqlarda eshkak eshish texnikasi. Qoida bo'yicha birinchi raqamli sportchi o'rniga nisbatan kuchli va tajribali eshkak eshuvchi tanlanadi. Tempni ham u berib turadi, trassaning nafaqat to'g'ri qismida, balki to'siqlarni aylanib o'tishda va murakkab elementlarni bajarish chog'ida ham tezlikni saqlab qolishga harakat qiladi. Ikkinchi raqamli eshkak eshuvchi qayiqni boshqarish funksiyasini bajaradi.(8-rasm)



8-rasm. Juftlikda eshkak eshish

Aralash juftliklar bilan eshkak eshishda ikkinchi raqam o'rnini ayollarga beriladi. Biroq murakkab trassalarda qayiq boshqaruvi texnika va jismonan murakkab vazifaga aylanganda ikkinchi raqam o'rniga erkak eshkakchilarni qo'yish maqsadga muvofiq.

Nazorat savollari.

1. Yoysimon eshish harakatining nechta turi farqlanadi?
2. Darvozalardan o'tish qanday amalga oshiriladi?
3. Eskimoscha aylanish deganda nimani tushunasiz?
4. Travers nima?
5. O'rama va vallar qanday kesib o'tiladi?
6. Juft o'rinni qayiqlarda eshkak eshish xususiyatlarini ayting?

7-mavzu: Musobaqani tashkil etish va o'tkazish


Reja

1. Musobaqa turlari va o'tkazuvchi tashkilotlar.
2. Musobaqa nizomi.
3. Musobaqa qatnashchilarining huquq va majburiyatlari.
4. Xakamlar tarkibi va xakamlik.
5. Nazorat savollari

Musobaqa klassifikasion deb hisoblanishi uchun poygada kamida uchta qayiq ishtirok etishi lozim, fahriylar o'rtasidagi poygalar bundan mustasno.

Musobaqalar quyidagilarga bo'linadi:

- shaxsiy (yakka);
- jamoaviy;
- shaxsiy-jamoaviy. (1-rasm)



1-rasm. Musobaqadan lavxa

Shaxsiy musobaqalarda ekipajlarning o'rin va natijalari har bir qayiq turida aniqlanadi. Jamoaviy musobaqalarda har bir jamoaga ballar taqdim etiladi. Shaxsiy-jamoaviy musobaqalarida o'rinlar bir vaqtning o'zida har bir qayiq turida va terma jamoalar o'rtasida aniqlanadi. Musobaqa nizomi musobaqaning xarakterini aniqlaydi. Musobaqa turlari: birinchiliklar, kubok va chempionatlar. Brinchiliklar yoshlar va o'smirlar o'rtasida o'tkaziladi. Kubok va chempionatlar kattalar o'rtasida o'tkaziladi.

Musobaqa o'tkazayotgan tashkilotning majburiyatlari.

1. Musobaqa nizomini tuzish, tasdiqlash va tarqatish.
2. Musobaqa o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tuzish.
3. Xakamlar hayatini tasdiqlash.
4. Qo'shimcha hisobot xujjatlarini tasdiqlash.
5. Musobaqa qoidalaridagi talablarga asosan musobaqaga tayorgarlikni ta'minlash
6. Musobaqa o'tkazish joyini nazorat qilish.

Tashkiliy qo'mitaning majburiyatlari.

1. Musobaqa qoidalariga muvofiq jixozlangan poyga masofasini taqdim etish.
2. Qutqaruv xizmati mavjudligi va havfsizlikni ta'minlash.
3. Musobaqa qatnashuvchilarini tibbiy nazorat bilan ta'minlash.
4. Musobaqa qatnashuvchilarini joylashtirish va ovqatlanishini ta'minlash.

5. *Qatnashuvchilarni musobaqada ishtirok etish masalasini xal qilish.(2-rasm)*



2-rasm. Xalqaro kanoe federasiyasi

Musobaqa nizomi.

1. *Shahar miqyosidagi musobaqalarga nizom musobaqa boshlanishidan 3oy oldin, Respublika va xalqaro musobaqalarda 6 oy oldin jo'natilishi lozim.*
2. *Nizomda quyidagilar ko'rsatiladi:*
 - *musobaqaning maqsadi va vazifalari;*
 - *o'tkazish joyi va vaqti;*
 - *musobaqa o'tkazish bo'yicha qo'llanma;*
 - *qatnashuvchi tashkilotlar va ularning tarkibi;*
 - *musobaqa dasturi;*
 - *yakunlash va g'oliblarni aniqlash tizimi;*
 - *g'oliblar va sovrindorlarni taqdirlash tartibi;*
 - *arizalarni berish shakli va muddati;*
 - *xorijdan kelgan qatnashuvchilarni kutib olish joylashtirish va kuzatish shartlari.*

Musobaqa dasturi.

1. *Dastur, musobaqa o'tkazuvchi tashkilot tomonidan aniqlanadi.*
2. *Dasturda ko'rsatilgan qayiq turlari poygada ishtirok etadi.*
3. *Barcha yosh guruhlardagi sportchilar musobaqa nizomida tasdiqlangan masofalarda ishtirok etadilar.*
4. *Musobaqaning bosh hakami poygani ketma-ketligini o'zgartirishi mumkin.*
5. *Ma'lum qayiq turidagi poygalar keying start boshlanishidan 2 soat oldin tugaydi. Poygalar o'rtasidagi interval vaqti kamida 5 daqiqa bo'ladi.*

Musobaqalarda qatnashish uchun arizalar.

1. *Musobaqada qatnashuvchi tshkilot nizomda ko'rsatilgan muddatda arizalarni yetkazib beradi.*
2. *Avvalgi berilgan arizalarda qayiq va qatnashuvchilarning soni ko'rsatiladi.*
3. *Maxsus arizada asosiy va qo'shimcha qatnashuvchilarning ro'yxati ko'rsatiladi, ushbu buyurtma mandat hayatiga beriladi.(3-rasm)*



www.alamy.com - GFB7Y7

3-rasm. Hakamlar

Ekipajlarni start raqamlari va poygalar bo'yicha joylashtirish.

1. Ekipajning poyga va yo'laklar bo'yicha ishtiroki qura asosida aniqlanadi. Final poygalari bundan mustasno.
2. Qura tashashni joyi va vaqti musobaqa nizomida belgilanadi. Qura tashash uchun hakamlar va qatnashuvchi sportchilarning vakillari taklif etiladi.
3. Musobaqaning brinchi bosqichida eng kuchli ekipajlar alohida guruhlariga ajratiladi, agar nizomda nazarda tutilgan bo'lsa.
4. Ekipajlarni keyingi poygalardagi ishtiroki oldingi poygada egallagan o'rniga qarab aniqlanadi⁴. (An Introduction to rowing, 72-81 betlar)

Musobaqa qatnashuvchilarini almashtirish.

1. Musobaqada qatnasha oladigan sportchilarni jamoa vakili almashtirish huquqiga ega (ekipaj tarkibining 50%).
2. Qatnashuvchilarni almashtirish uchun jamoa vakili yozma ravishda hakamlar hayatiga murojat qilish kerak.
3. Qatnashuvchilar brinchi poyga boshlanishidan 1 soat oldin almashtiriladi.
4. Kasal bo'lib qolgan qatnashuvchilarni almashtirilishi xoxlagan bosqichida, finalda ham o'tkaziladi. Kasallikni tasdiqlovchi xujjat keltirilishi sharti bilan.

E'tirozlar.

1. Agar hakamlar hayati a'zosining qarorlari, sportchilar, boshqa jamoa murabbiylarini qoniqtirmasa, ular e'tiroz bildirish huquqiga ega.
2. E'tiroz bildirish tartibi va muddati:
 - startdagi hakamga e'tiroz og'zaki tartibda bildiriladi, poygani kuzatuvchi arbitrga, finshdagi hakamga yozma ravishda ushbu poyga tugagach 30 daqiqa mobaynida e'tiroz bildirish mumkin;
 - musobaqa nizomiga rioya qilinmaganda, e'tiroz rasmiy vakil tomonidan yozma ravishda bosh hakamga oxirgi poyga tugagach 30 daqiqa mobaynida beriladi.

⁴An Introduction to Rowing Paperback, 2013, 72-81 betlar

3. E'tiroz qarori apelyatsion hakam tomonidan yozma ravishda berilib va hakamlar hayatining musobaqa xisobotiga qo'shiladi.(4-rasm)



4-rasm. Hakamlar

Musobaqa qatnashuvchilari ularning huquq va majburiyatlari.

1. Musobaqaga, suzishni biladigan, shifokor ruxsatnomasiga ega, musobaqa nizomining talablariga to'g'ri keladigan sportchilar qo'yiladi.
 2. Yosh kategoriyalari:
 - kichik yoshdagi o'smir bolalar va qizlar (13-14 yosh).
 - o'rta yoshdagi o'smir bolalar va qizlar (15-16 yosh).
 - katta yoshdagi o'smir bolalar va qizlar (17-18 yosh).
 - 19-20 yoshdagilar.
 - kattalar - erkak va ayollar.
 - yengil vazindagilar
 - fahriylar – erkak va ayollar.
 3. Tibbiy xulosasiga ega bo'lgan kichik yoshdagi sportchilar katta yoshdagi sportchilar guruhida qatnashishlari mumkin.
 4. Yosh kategoriyasi musobaqa qatnashuvchilarining tug'ilgan yili bo'yicha aniqlanadi.
 5. Barcha guruhlar uchun boshqaruvchining minimal yoshi - 14 yosh.
 6. Boshqaruvchining vazni: 55 kg. – erkaklar va o'smir bolalar uchun, 50 kg. – o'smir qizlar va ayollar uchun.
 7. Yengil vazn kategoriyasida sportchilar quyidagi vaznda musobaqalarda ishtirok etadilar: 70 kg. – erkaklar uchun, 57 kg. – ayollar uchun.
- Bir o'rinli qayiqalarda ishtirok etuvchi sportchilarning maksimal vazni: 72,5 kg. – erkaklar uchun, 59 kg. – ayollar uchun.
- Yengil vazin sportchilari birinchi poygadan 1 soat oldin taroziga turishadi.
8. Musobaqa qatnashchilarining majburiyatlari:
 - suvda belgilangan tartibga, hamda qayiqarning masofada harakatlanish qoidalariga rioya qilish;(5-rasm)



5-rasm. Hakamlar kollegiyasi

- hakamlarning barcha ko'rsatma va talablarini bajarish;
 - masofada to'g'ri musobaqalashish;
 - raqibga xalaqit berish maqsadida rejalashtirilgan harakatga yo'l qo'ymaslik;
 - qayiq ag'darilib ketgan holatda uni maxkam ushlab qutqaruvchilar kateri kelguniga qadar qayiqdan xech qayerga suzib ketmaslik;
 - hakamlar bilan gap talashmaslik;
 - o'z tashkilotining sport kiymida bo'lishi;
 - taqdirlash marosimida ishtirok etish;
9. Musobaqa qatnashchilarining huquqlari:
- musobaqa qoidalarini buzilganda yozma e'tiroz bildirish.
10. Hakamlar hayati tomonidan jarima qo'yilishi mumkin.
- ogohlantirish;
 - poygadan olib tashlash;
 - diskvalifikasiya.

Diskvalifikasiya sportchining musobaqada qatnashish huquqidan mahrum etilishi va qo'lga kiritilgan ballarni xisobga olinmasligini, nizomda belgilangan bo'lsa jarima bilan jazolanishini bildiradi. Poygadan olish faqatgina dasturning bitta chiqishida ishtirok etmaslikni nazarga tutadi hamda oldin dasturlarda olingan ballar saqlanib qolinadi.

Izoh: ikkita ogohlantirish zaevdan olib tashlanishga olib keladi. Qo'pol yoki ataylab musobaqa qoidalarini buzgan qatnashchilar diskvalifikasiyaga tushadi.

Jamoa va murabbiylarning rasmiy vakillarini huquq va majburiyatlari.

1. Rasmiy vakilning ismi sharifi talabnomada ko'rsatiladi.
2. Vakil musobaqa dasturi va qoidalarini bilishi majburiy (shart).
3. Vakil quyidagi javobgarlikni olib boradi:
 - hakamlar hayati talablari asosida sportchi ismi yozilgan talabnoma, ekipaj ro'yxati va hujjatlarni taqdim etilishiga;
 - qatnashuvchilarning tartib intizomiga;
 - sportchilarning musobaqa qoidalarini bilishlariga;
 - barcha hakamlar hayati qarorlari bo'yicha qatnashuvchilarga ma'lumot yetkazishda;

- jamoa qatnashuvchilari startga kelishishida hamda musobaqaning ochilish va yopilish marosimlariga kelishlari uchun.
- 4. Hakamlar hayatining yig'ilishlarida ishtirok etishi shart.
- 5. Vakil hakamlar hayatining barcha talablarini bajarishi shart.
- 6. Hakamlar hayatining harakatlariga vakil tomonidan aralashishlar man etiladi.
- 7. Murabbiy unga yuklatilgan sportchilarga shaxsiy javobgarlik olib boradi.
- 8. Murabbiy hakamlar hayatining harakatlariga aralashmasligi kerak.
- 9. Jamoa a'zolariga musobaqa qoidalarini buzishga yo'l qo'ygan murabbiy bosh hakam tomonidan musobaqadan chiqarib yuboriladi.
- 10. Vakil hamda murabbiy uning jamoasi baxslashuvni (mashg'ulotlarni) tugatganligiga amin bo'lmaguncha musobaqani tark etishi man etiladi. (6-rasm)



6-rasm. Olimpiyada o'yinlari ramzi

Tibbiy yordam.


1. Musobaqada tibbiy yordam deganda quyidagilar nazarda tutiladi:
 - shifokor mavjudligi;
 - dori-darmonlarning mavjudligi;
 - sanitar-gigiyenik nazorat;
 - jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish va eng yaqin tibbiy bo'limga olib borish.
2. Alohida start beriladigan musobaqalarda qo'shimcha tibbiy yordam punktlari bilan ta'minlanishi shart.

Musobaqa qatnashchilarining xavfsizligi.

Musobaqa o'tkazuvchi tashkilot sportchilarining xavfsizligiga javobgarlik olib boradi. Shuning uchun xavfsizlikni saqlash chora tadbirlari ishlab chiqiladi.

1. Akvatoriya tanlanishi va masofaning joylashuvi qatnashchilarning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan olib boriladi.
2. Musobaqalar katta kemalar yuruvchi ochiq suvlar va tez oqimga ega daryolarda o'tkazilishi man etiladi.
3. Xavfsizlikni saqlash uchun suvda o'zini tutish qoidalari bilan tanishtirish zarur.
4. Musobaqa va mashg'ulotlarni o'tkazish uchun belgilangan masofa va vaqt grafigini jamoa vakiliga berish.

5. Qutqaruv xizmati va tibbiy xodimlarni mavjudligini tekshirish.
6. Sportchilarni xavfsizligiga xavf tug'diruvchi sharoitlar (momaqaldiroq, to'lqin, kech kirishi, kemalarni paydo bo'lishi) sodir bo'lganda musobaqani to'xtatish.(7-rasm)



7-rasm. Jaxon kubogi emblemasi

Hakamlar hayati a'zolarining funksiyalari

Hakamlar hayatining tarkibi.

1. Hakamlar hayati musobaqani o'tkazuvchi tashkilot hamda tegishli eshkak eshish federasiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Federasiya hakamlarni musobaqa boshlanishidan kamida 30 kun oldin taqdim etadi.
2. Hakamlar hayati a'zolarining hamda musobaqada xizmat ko'rsatuvchi jamoaning tarkibiy soni musobaqa darajasi va qatnashuvchilar soniga qarab aniqlanadi.

Bosh hakam.

1. Bosh hakam hakamlar hayatini boshqaradi.
2. Bosh hakamning majburiyatlari:
 - hakamlarni brigadalar bo'yicha joylashtirish;
 - suvdagi va quruqlikdagi jihozlarning musobaqa qoidalari talablariga javob berishini nazorat qilish;
 - hakamlarning jixozlarini mavjudligini tekshirish;
 - musobaqa boshlanishidan oldin hakamlar hayatining yig'ilishini hamda jamoa vakillari bilan qura tashashini tashkillashtirish;
 - musobaqaning navbatdagi kun yakuni bo'yicha hakamlar hayatining yig'ilishini o'tkazish;(8-rasm)



8-rasm. Musobaqa kalendari

- apelyatsion kuzatuvchi hakam qarorlarini qabul qilish;
- musobaqa tugaganidan so'ng uch kun ichida musobaqa o'tkazuvchi tashkilotning tashkiliy qo'mitasiga xisobot berish hamda barcha hakamlarning xujjatlarini topshirish.(9-rasm)



9-rasm. Musobaqa turlari

3. Bosh hakam quyidagi huquqlarga ega:
- musobaqani to'xtatish, bekor qilish, qoldirishi mumkin, agar:
 - 1) musobaqa o'tkazish joyi musobaqa qoidalari talablariga javob bermasa.

2) meteralogik vaziyatlar qatnashuvchilarni xavfsizligiga xavf tug'dirsa.

3) tibbiy yordam yo'q bo'lsa.

4) suvdagi qutqaruv xizmati mavjud bo'lmasa.

- hakamlarning harakatlanishi hamda ular tomonidan qilingan qo'pol xatoliklarini ish jarayonida bartaraf etish;
- poygalarning jadvaldagi o'zgarishlarni nazorat qilish;
- murabbiylarni musobaqadan chetlashtirish;
- xoxlagan (istagan) hakamini qarorini bekor qilish;
- musobaqa jarayonidagi tug'ilgan savollarni xal qilish;
- o'z zimasiidagi majburiyatlarni umumiy savollar bo'yicha bosh hakam o'rinbosariga yuklash.

Bosh hakamning o'rinbosarlari.

1. *Umumiy ishlar bo'yicha bosh hakam o'rinbosari.*

- hakamlar brigadasini boshqarish va nazoratini ta'minlaydi;
- tantanaviy va yakuniy marosimlarni tashkil etilishini ta'minlaydi;
- bosh hakam yo'qligida uning barcha huquqlaridan foydalanishi mumkin;
- o'tkazilgan musobaqalarning xisobotini tayyorlaydi.

2. *Moddiy-texnik ta'minot bo'yicha bosh hakam o'rinbosari.*

- xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning ishlari ustidan boshqaradi;
- qutqaruv va tibbiy xizmat mavjudligini tekshiradi;
- masofani to'g'ri jihozlanganligini kuzatadi;
- tantanaviy marosimlarning o'tkaziladigan joylarini, tayyorgarlik ishlarini nazorat qiladi;
- jihozlarni sozlash ishlarini ta'minlaydi.

3. *Tibbiy ta'minot bo'yicha bosh hakam o'rinbosari.*

- tibbiy ishchilar guruhini boshqaradi;
- qatnashuvchilarning ruxsatnomasida shifokorlar tomonidan qo'yiladigan imzo va muhrini tekshiradi;
- tez yordam mashinalarini mavjudligiga javob beradi;
- jaroxat olgan yoki kasal bo'lib qolgan qatnashuvchilarning nazoratdan o'tishlarini tashkil etadi;
- dopping nazoratini tashkillashtiradi.

Bosh kotib.

1. Bosh kotib kotiblik ishlarini boshqaradi.

2. Bosh kotib majburiyati:

- musobaqa nizomini o'rganib chiqish, ushbu musobaqaning o'tkazish xususiyatlarini aniqlashtirish;
- kansilariya jihozlari uchun buyurtma tuzish;
- musobaqa qatnashuvchilarining talabnoma va ruxsatnomalarini qabul qilish jarayonida ishtirok etish;
- kotib ish rejasini tuzish va kotiblar tarkibini tuzish;
- diplomlar uchun matn tayyorlash;
- qayiqalar sinfi bo'yicha musobaqa qatnashuvchilarining ro'yxatini tuzish va tekshirish;
- ballarni hisoblash uchun jadvallarni tayyorlash;
- qura tashlash jarayoniga tayyorgarlik ko'rish;
- hakamlar hayatining yig'ilish bayonnomalarini olib borish;
- bosh hakamning vazifasi bilan tasdiqlangan qayta buyurtma va e'tirozlarni qabul qilish;
- yakuniy texnik natijalar xisobotini berish;
- o'tkazilgan musobaqa bo'yicha umumiy texnik xisobotni tuzish.



10-rasm. Qayiqlarni nazorat qilish

Nazorat komissiyasi.

1. Nazorat komissiyasi 3-4 nazorat – hakamlaridan iborat. Ularni nazorat komissiyasining katta hakami boshqaradi.
2. Nzorat kaomissiyasi bosh hakamining majburiyatlari:
 - «yengil vazin» kategoriyasida ishtirok etuvchi qayiq boshqaruvchilari va eshkakchilarning vaznini o'lchash;
 - boshqaruvchilarga qo'shimcha yuk berish, poyga tugagach ularni qayiqda mavjudligini tekshirish;
 - eshish yuzasi o'lchamlarini nazorat qilish;
 - flyugarkalar bilan ta'mirlash va ularni qayiqga o'rnatishini nazorat qilish;
 - qayiqlarni ta'mirlanishini nazorat qilish; (qayiqlarni uchida rezinali sharlarni mavjudligi);
 - ekipaj formasini va eshkaklarni rangini tekshirish;
 - ekipajning tarkibini nazorat qilish;
 - qatnashuvchilarni doping nazoratiga jo'natishlarini nazorat qilish;
 - dasturlar, poyga natijalari bayonnomalarini, rasmiy qarorlarni chiqarish, musobaqa qatnashuvchilarini shu borada axborotlantirish.(10-rasm)

Startdagi hakamlar brigadasi.

1. Startdagi hakamlar brigadasi 2-6 hakamlardan tashkil topadi. Ularni startdagi katta hakam boshqaradi.
2. Startdagi katta hakam:
 - startdagi hakamlarning ishini boshqaradi;
 - startdagi jixozlarning va barcha aloqa vositalarini shayligiga javob beradi;
 - startdagi ekipajni startgacha qolgan vaqt to'g'risida ogohlantirib turadi;
 - jamoalarni aytib start beradi;
 - start beruvchi o'zi bilan soat, qizil bayroq, qo'ng'iroq va start chizig'idagi dinamikka ulangan mikrafon bo'lishi shart;
3. Startdagi hakam:
 - qayiqni ushlovchilar hamda stardagi videonazorati va apparaturalarni boshqaruvchi ishchi jamoani boshqaradi;

- startdagi chiziq bo'yicha qayiqnlarni to'g'irlyadi va start beruvchiga qayiqnlar tayyorligi to'g'risida signal beradi;
 - falstart sabablarini aniqlab va shu to'g'risida start beruvchiga xabar yetkazadi. Startagi hakamda oq va qizil bayroqlar hamda mikrafon bo'lishi kerak.
4. Startagi hakamning yordamchisi:
- qayiqnlarni o'z vaqtida startga kelishini va ularni o'zlarining startagi o'rinlarida joylashishlarini nazorat qiladi.

Arbitrlar brigadasi.

1. Arbitrlar brigadasi 4-8 hakamdan iborat. Ularni arbitrlar brigadasi katta arbitri boshqaradi.
2. Katta arbitr majburiyati:
 - arbitr hakam motorli qayiqnlar haydovchilarini boshqaradi;
 - arbitrlarni poygalar bo'yicha joylashtirish;
 - belgilarning xolatini nazorat qilish;
 - arbitr majburiyatlarini bajarish.
3. Arbitr majbur:
 - startga borish jarayonida masofa belgilanganligini va akvatoriya xolatini nazorat qilish;
 - motorli qayiqda qo'ng'iroq, qizil va oq bayroqlar, megafon va start bayonnomasi bo'lishi kerak.
4. Zaxiradagi arbitr masofaning o'rtasida motorli qayiqda chegara ortida bo'lishi kerak.

Finishdagi brigada.

1. Finishdagi brigada 5-7 hakamlardan iborat. Ularni finishdagi katta hakam boshqaradi.
2. Finishdagi katta hakam majburiyati:
 - finishdagi hakamlar vazifalarini taqsimlash;
 - finishdagi brigada ishini boshqarish;
 - qayiqnlarni finishga tartib bilan kelishini aniqlash va natijalarni ro'yxatga olishni nazorat qilish.
3. Finish brigada a'zolari majbur:
 - finish chizig'ini kesib o'tish paytini ovozli signal bilan belgilash;
 - finish chizig'ini o'tish tartibini aniqlash va o'rin belgilash;
 - poyga qoida doirasida o'tganligiga amin bo'lish;
 - hakamlar yozuvlarini rasmiylashtirish;
4. Vaqtni aniqlovchi brigada 4-6 hakamdan iborat. Masofa bo'laklari bo'yicha vaqtni aniqlash uchun esa brigade 6-8 hakamdan iborat bo'ladi. Ularni katta vaqtni aniqlash bo'yicha katta hakam boshqaradi.
5. Vaqtni aniqlash bo'yicha katta hakam majbur:
 - har bir poyga yakunida finishdagi kotibga sekundamer ko'rsatgan vaqtni yetkazish va hakamlar yozuvini imzolash;
6. Vaqtni aniqlovchi hakamlar majbur:
 - start beruvchining «olg'a!» buyrug'iga sekundamerlarni yoqish va har bir qayiqning uchi finish chizig'ini kesganda vaqtni ro'yxatga olish.
7. Masofa kesimlaridagi hakamlar majbur:
 - har bir qayiqning masofa kesimini bosib o'tish vaqti va tartibini belgilash.
8. Finishdagi kotiba majbur:
 - hakamning yozuvini rasmiylashtirish va uni vaqt aniqlovchi katta hakam hamda finishdagi katta hakamga taqdim etish.

Kotiblik.

1. Kotiblar brigadasi 4-6 hakamdan iborat. Ularni bosh kotib boshqaradi.
2. Kotiblikning bosh vazifasi – musobaqaning barcha texnik xujjatlarini olib borish.
3. Kotiblar finishdagi va bosh hakam bilan aloqada bo'lishi kerak.
4. Bosh kotib majbur:
 - kotiblar ichida majburiyatlarni taqsimlash;
 - mandat komissiyasining ishida ishtirok etish.

Mukofotlash bo'yicha hakamlar brigadasi.

